

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

HAYDAROVA GULSHAN

**TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARNI DIAGNOSTIKA
QILISH VA UNING PSIXOKORREKSIYASI**

«5310200-Psixologiya» yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. A.I.Saidov

Bitiruv malakaviy ishi «Psixologiya» kafedrasining 2014 yil 30-maydagi yig`ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

p.f.n. dots. A. I. Saidov

BMI YADAKning 2014 yil _____iyundagi majlisida muhokama qilindi va
_____ ballga baholandi (bayonnoma №____)

YADAK raisi: _____

A'zolari: _____

Samarqand-2014

SamDU Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasining 2014 yil 30-may
navbatdagi № 10 bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari.

Majlis raisi: p.f.n. dots.A. Saidov

Kotib: V. Axrorov

KUN TARTIBI

«Psixologiya» kafedrasida 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi 2013-2014 o'quv yilida bajarilgan malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri p.f.n. dots A.I.Saidov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi

2013-2014 o'quv yilida Psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi: Haydarova Gulshanning «Tarbiyasi qiyin o'quvchilarni diagnostika qilish va uning psixokorreksiyasi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi.

Ilmiy rahbari: dotsent A.Saidov ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi bor.

Shuning uchun so'zni Haydarova Gulshanga bersak. U malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirdi.

Haydarova Gulshan malakaviy bitiruv ishining mazmuni, mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amalga oshirgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga o'qituvchilar Eshquvvatov va Nasimov S, Oblaqulov J savollar berishdi. Savollarga Haydarova Gulshan ijobiy javob berdi.

Haydarova Gulshanning chiqishi, savol javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI

1. Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishining

bitiruvchi kurs talabasi: Haydarova Gulshanning «Tarbiyasi qiyin o'quvchilarni diagnostika qilish va uning psixokorreksiyasi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Haydarova Gulshanning ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamChTI dotsenti, E.Iskandarov taqrizchi deb belgilansin.

«Psixologiya» kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi: _____ **p.f.n. A.Saidov**

Kotib: _____ **V. Axrorov**

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-
Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Haydarova Gulshanning
«Tarbiyasi qiyin o`quvchilarni diagnostika qilish va uning psixokorreksiyasi»
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

MULOHAZASI

Ta'lim jarayonida pedagog bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyatiga xos ijtimoiy psixologik uyg'unlikni tashkil etish, ta'lim subyektlarini mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish ularning kasbiy tayyorlash muhitini takomillashishi va yuksalishiga olib keladi. Zero, ontogenetik rivojlanishning o'smirlik davri eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg'unlashib ketgan, quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o'zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi jadal sur'at bilan kechadigan davr bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda maktab dasturini yetarli darajada o'zlashtira olmaslik, maktabdan bezish holatlari, bir sinfda ikki yil o'qish (sinfda qolish) bilan bog'liq jihatlar tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa umumta'lim maktablarida o'quvchilar psixologik imkoniyatlariga yanada jiddiyroq tashxis qo'yish, maktab ta'limida korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning individual dasturini tuzish; tarbiyasi qiyin o'smirlar va ularning ota-onalari bilan ishlash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayni paytda mazkur holatlar birinchidan, o'zlashtira olmovchi o'quvchilarning bilim darajasini maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorlikda chuqur diagnostika qilinishini; ikkinchidan, maktab psixologi o'zlashtira olmovchi o'quvchilarning nafaqat sog'lig'i balki, umuman bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi va ijtimoiy psixologik rivojlanishi haqida ham bilishi kerakligini, uchinchidan, mazkur «qiyin» lik ota-onalar o'z farzandlarining muammolari yechimida bevosita va bivosita ishtirok etishlarini anglashlarida mas'uliyat sezishlari lozimligini, to'rtinchidan, mazkur o'quvchilar kategoriyasi uchun korreksion-rivojlantiruvchi tizimni joriy qilish va uni amaliyotga tatbiq imkoniyatlarini qidirish lozimligini ham talab qiladi.

Haydarova Gulshan tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib ishda yuqoridagi muammolar ilmiy tilda bayon etilgan.

Ishning birinchi bobi: Ta'lim jarayonida pedagog psixokorreksion faoliyatini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari deb nomlangan bo'lib bunda ta'lim jarayonida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini aniqlash uslubi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Ishning ikkinchi bobida Pedagog faoliyatining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash bo'yicha psixologik kompetentligi deb nomlanib unda pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi bo'yicha psixologik yondoshuv modeli va tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda pedago faoliyatining psixologik samaradorligi bo'yicha qilingan ishlar ilmiy tilda bayon etilgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib Haydarova Gulshanning mazkur malakaviy bitiruv ishini ijobiy baholayman va uni himoyaga tavsiya etaman.

SamDU

psixologiya kafedrası dotsenti

A. Saidov

**Alisher Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti «5310200-
Psixologiya» yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi Haydarova Gulshanning «
Tarbiyasi qiyin o`quvchilarni diagnostika qilish va uning psixokorreksiyasi »
mavzusiga**

TAQRIZ

Ma'lumki, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash jarayoni har bir o'smirning ta'lim samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining asosiy qatnashchilari o'quvchilar, o'qituvchilar va otalardir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari – o'zgarib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng dinamik jabhasi hisoblanadi. Mazmuniy va tashkiliy ma'noda u o'quvchining individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkoniyati hisoblanib u o'z ichiga ehtimolli-zaruriy va shu bilan birga shartli-zaruriy bilim va malakalarni qamrab oladi. Binobarin, bugungi ta'lim jarayoniga jalb qilingan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligini muvaffaqiyatli tashkil etish pedagog va har bir o'smirning psixologik qiyofasini tasniflash, ularning munosabatlaridagi psixologik muammolar, o'zaro hamkorlikni o'rnatish shart-sharoitlari, turli vaziyatlar (ham hayotiy, ham shaxsiy pozisiya)ga ularning tayyorligi, bir-birlarini shaxs sifatida qabul qilishi, o'qituvchining o'zaro munosabatlardagi kasbiy kompetentligi, o'z mavqeyi, axborotlar tizimini qabul etishdagi ham individual, ham guruhiy yondashuvlari, uning o'zi va o'quvchilari bahosidagi psixologik profili, o'qitish jarayonidagi hamkorlik ko'rinishlari va fenomenologiyasini yoritish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Haydarova Gulshan tomonidan yozilgan ushbu malakaviy bitiruv ishi ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi:Ta'lim jarayonida pedagog psixokorreksion faoliyatini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari deb nomlangan bo'lib bunda ta'lim jarayonida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy

kompetentligini aniqlash uslubi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borilgan.

Ishning ikkinchi bobida Pedagog faoliyatining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash bo'yicha psixologik kompetentligi deb nomlanib unda pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi bo'yicha psixologik yondoshuv modeli va tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda pedago faoliyatining psixologik samaradorligi bo'yicha qilingan ishlar ilmiy tilda bayon etilgan.

Xulosa qismida har ikkala bob haqida talaba mavzu bo'yicha o'z fikr mulohazalarni yaxshi bayon qilgan.

Umuman olganda mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzuga mos ravishda mazmunli qilib yoritilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Sam CHTI dotsenti :

E.Iskandarov

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB. TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOG PSIXOKORREKSION FAOLIYATINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Ta'lim jarayonida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini aniqlash uslubi.....

1.2. Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish uslubi.....

II-BOB. PEDAGOG FAOLIYATINING TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BILAN ISHLASH BO'YICHA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI

2.1. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi bo'yicha psixologik yondashuv modeli.....

2.2. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda pedagog faoliyatining psixologik samaradorligi.....

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Ta'lim jarayonida pedagog bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyatiga xos ijtimoiy psixologik uyg'unlikni tashkil etish, ta'lim subyektlarini mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish ularning kasbiy tayyorlash muhitini takomillashishi va yuksalishiga olib keladi. Zero, ontogenetik rivojlanishning o'smirlar davri eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg'unlashib ketgan, quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o'zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me'yorlarning shakllanishi jadal sur'at bilan kechadigan davr bo'lib hisoblanadi.

Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da mazkur muammoga alohida e'tibor qaratiladi. Xuddi shu sababli, ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda psixologik hamkorlik faoliyatining yangi bir bosqichga o'tib borayotganligini ta'kidlash mumkin. Qolaversa, "O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratdir... Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir"¹ - deya alohida qayd etiladi.

Bugungi kunda maktab dasturini yetarli darajada o'zlashtira olmaslik, maktabdan bezish holatlari, bir sinfda ikki yil o'qish (sinfda qolish) bilan bog'liq jihatlar tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa umumta'lim maktablarida o'quvchilar psixologik imkoniyatlariga yanada jiddiyroq tashxis qo'yish, maktab ta'limida korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning individual dasturini tuzish; tarbiyasi qiyin o'smirlar va ularning ota-onalari bilan ishlash kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayni paytda mazkur holatlar birinchidan,

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т: Шарқ, 1997, Б- 9.

o'zlashtira olmovchi o'quvchilarning bilim darajasini maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorlikda chuqur diagnostika qilinishini; ikkinchidan, maktab psixologi o'zlashtira olmovchi o'quvchilarning nafaqat sog'lig'i balki, umuman bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi va ijtimoiy psixologik rivojlanishi haqida ham bilishi kerakligini, uchinchidan, mazkur «qiyin» lik ota-onalar o'z farzandlarining muammolari yechimida bevosita va bivosita ishtirok etishlarini anglashlarida mas'uliyat sezishlari lozimligini, to'rtinchidan, mazkur o'quvchilar kategoriyasi uchun korreksion-rivojlantiruvchi tizimni joriy qilish va uni amaliyotga tatbiq imkoniyatlarini qidirish lozimligini ham talab qiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda: o'quvchi salomatligining funksional holati; tibbiy ma'lumotlarga asoslangan asab-ruhiy salomatligi; maktabga psixologik-pedagogik va ijtimoiy tayyorgarlik darajasi; o'quv faoliyatiga asoslangan va psixofiziologik shakllanganlik ko'rsatkichlarini o'rganish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

Buning uchun esa pedagoglar o'zlarining diagnostik faoliyatlariga ega bo'lishlari o'ta muhim va zarurligini anglab yetishlari darkor. Zero, aksariyat hollarda ular o'zlarini oqlash uchun o'quv yuklamasidan ortib, o'quvchilarni alohida o'rganishga vaqt yetmasligini ro'kach qiladilar. Bu fikr bilan aslo kelishib bo'lmaydi, chunki ular baribir o'quvchilarning o'zlashtirishlaridagi individual xususiyatlari, u bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'lami, o'zaro muloqatmandlik ko'rsatkichlari, o'tilayotgan fan va fan o'qituvchisiga munosabat motivasiyalarining shakllanishi kabi jihatlariga diqqat-e'tiborlarini qaratishlari lozim bo'ladi.

Binobarin, bugungi ta'lim jarayoniga jalb qilingan o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligini muvaffaqiyatli tashkil etish pedagog va har bir o'smirning psixologik qiyofasini tasniflash, ularning munosabatlaridagi psixologik muammolar, o'zaro hamkorlikni o'rnatish shart-sharoitlari, turli vaziyatlar (ham hayotiy, ham shaxsiy pozisiya)ga ularning tayyorligi, bir-birlarini shaxs sifatida qabul qilishi, o'qituvchining o'zaro munosabatlardagi kasbiy kompetentligi, o'z

mavqeyi, axborotlar tizimini qabul etishdagi ham individual, ham guruhiy yondashuvlari, uning o'zi va o'quvchilari bahosidagi psixologik profili, o'qitish jarayonidagi hamkorlik ko'rinishlari va fenomenologiyasini yoritish kabi masalalarga alohida e'tiborni qaratish ishimizning bosh maqsadi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, aytish joizki, bizning tadqiqotga qadar ham ta'lim jarayonidagi psixologik muammolarning turli jabhalarini o'rgangan ilmiy izlanishlar mavjudligini e'tirof etgan holda tadqiqotning dolzarbligini quyidagi holatlarda ham ko'rish mumkin:

- ta'lim-tarbiya faoliyatining subyektlari tomonidan tarbiya faolligining muvaffaqiyatsizligi deb qaraluvchi "qiyin" o'smirlar kategoriyasining ortib borayotganligi;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining pedagogik qarovsiz, tajovuzkor va tarbiyasiz o'quvchilar ketegoriyasini belgilashda tamoman o'zgacha psixologik-pedagogik reallikning mavjudligi;
- pedagoglar mazkur kategoriya o'quvchilarining individual xususiyatlarini tushunish va qabul qilishlari zarurligi kabi jihatlar tarbiyasi qiyin o'smirlar muammosini o'rganishga zaruratning tobora ortib borayotganligi.

Ushbu yo'nalish "tavakkal guruhi"ni tashkil etuvchi o'smirlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi, ta'lim va tarbiya jarayonida xulq korreksiyasining yangi texnologiyalari ya'ni, xulq korreksiyasining yangicha psixologik modelini yaratish vazifasini yuklaydi. Bu, birinchidan, ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim-tarbiyaning barcha darajalari hamda bosqichlarida ta'lim jarayonlarini psixologiyalashtirish; ikkinchidan, ta'lim subyektlarining zamonaviy ijtimoiy sharoitlarga adaptatsiyasi, pedagoglar va ota-onalar tomonidan o'smirning rivojlanish jarayonini anglash, uni ko'ra olishning psixologik stereotiplarini bartaraf etish; uchinchidan, umumta'lim maktablarining o'ziga xosligi xususan, maktabning an'anaviy funksiyalari bilan bir qatorda moslashtiruvchi va qayta tiklovchilik funksiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi bilan bevosita bog'liqdir.

Bularning barchasi, tarbiyasi qiyin o'smirlar xulqini korreksiya qilishda pedagog kasbiy faoliyatining taktik va strategik jihatdan psixologik kompetentligi muammosiga ilmiy-metodik yanada jiddiyroq yondoshishni taqozo etadi.

Ishning obyekti – tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash.

Ishning predmeti – tarbiyasi qiyin o'smirlar xulqini korreksiya qilishda pedagog kasbiy faoliyatining psixologik kompetentligini o'rganish.

Ishning maqsadi – tarbiyasi qiyin o'smirlarda “Men timsoli”ni korreksiya qilishda pedagog kasbiy faoliyati kompetentligi-ning psixologik modelini yaratish va uni amaliyotda qo'llash.

Ishning farazi – dazadaptasiyalashgan o'smirlarda “Men timsoli” ni korreksiya qilish bu pedagogning kasbiy-psixologik kompetentligini shakllantirish, ahamiyatli kasbiy jihatlarini rivojlantirish bilan bog'liq pedagoglarning kasbiy ijtimoiylashuvi hamda kasbiy faoliyati samaradorligini mustahkamlashga olib kelishi mumkin.

Pedagog kasbiy-psixologik kompetentligining motivasion, emosional-irodaviy va yo'naltirilgan tizimli komponentlarining shakllanganligi, uning kasbiy faoliyatini tipik vaziyatlarda harakatlantiruvchi operasional, ijrochilik jihatlarining samaradorlik ko'rsatkichini belgilashi; tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan o'qituvchi ishining psixologik kompetentlik modeli dolzarb yo'nalishni belgilab, pedagog faoliyatining strategiya va taktikasining psixologik jabhalarini muvaffaqiyatli amalga oshishida, o'qituvchining kasbiy-shaxslilik rivojlanishi va keng jamoatchilikni jalb qilish orqali, o'qituvchi va psixolog o'zaro harakatlari ortishi hisobiga ro'y berishi kutiladi.

Ishning maqsadi, predmet va obyektidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar shakllantirildi:

1. Pedagog kasbiy faoliyatida psixologik kompetentlik modelini yaratish va tizimlashtirish.
2. Ta'lim jarayonida psixologik kompetentlikning o'ziga xosligini aniqlash.

3. Tarbiyasi qiyin o'smirlarning "Men timsoli"ni psixokorreksiya qilishda kasbiy kompetentlikning psixologik parametrlarini va pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlarini ajratish.

4. Tarbiyasi qiyin o'smirlar va ota-onalarni qo'llab-quvvatlashning psixologik vosita va uslublarini pedagoglar tomonidan amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish.

Ishning nazariy-metodologik asoslari: mamlakatimizda ishlab chiqilgan va izchil amalga oshirilayotgan Davlat dasturlari jumladan, respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi g'oyalari, shuningdek, Ananyev B.G., Belicheva S.A., Bulanova O.Ye. va boshqalarnig tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlar bilan ishlashdagi psixologik-pedagogik kompetentlik dasturlari, Juravlev A.L., Leontyev A.N., Markova A.K. va boshqalarning kasbiy faoliyatning psixologik mohiyati, Vigotskiy L.S., Bojovich L.I., Muxina V.S., Feldshteyn D.I. va boshqalarning o'smirlik yoshining psixologik xususiyatlari haqidagi ta'limotlari tashkil etdi.

Ishning metodlari: o'qituvchining psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini aniqlash; o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish; "Men timsoli"ni tadqiq qilishga imkon beruvchi va o'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatishning adekvat chora- tadbirlarini o'rganishga qaratilgan metodlar; tarbiyasi qiyin o'smirlarning "Men timsoli"ni korreksiyalash maqsadida pedagoglarning psixologik-pedagogik faoliyatining mohiyatini ochib beruvchi tasniflarni o'rganish; eksperimental metodlarning samaradorligini o'rganish orqali o'quv fanlarini o'tish jarayonida o'qituvchining psixokorreksion ishlarini tizimlashtirish va aniqlash.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati: tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ish olib boruvchi o'qituvchilarning psixologik kompetentlik muammosining konseptual yechimida: o'qituvchi faoliyatini psixologik kompetentlik tushunchasi mohiyati bilan yanada kengaytirildi, o'qituvchining psixologik kompetentligi darajalari ko'rsatildi va tarbiyasi qiyin o'smirlarni korreksiya qilishda pedagog

kasbiy faoliya-ning psixologik mohiyati haqidagi ilmiy tasavvurlar chuqurlashtirildi.

I-BOB. TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOG PSIXOKORREKSION FAOLIYATINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

1.1. Ta'lim jarayonida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini aniqlash uslubi

Tarbiyasi qiyin o'smirlar xulqini korreksiya qilish bo'yicha pedagoglar oldida qo'yilgan vazifalarning bajarilishi o'qituvchidan muayyan darajadagi psixologik bilimlarning bo'lishini talab etadi. Biroq tarbiyasi qiyin o'smir – psixokorreksion jarayonning yagona ishtirokchisi emas. Tarbiyasi qiyin o'smirlarga psixologik hamrohlik qilish tizimli xarakterga ega bo'lib, o'smir shaxsi ichidagi har qanday tuzilmalar, maktab modelining har qanday bo'limlari, oila ichidagi o'zgarishlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, birining o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga olib keladi. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar “men timsoli”ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati samaradorligi ko'p hollarda o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi, shuningdek, pedagoglar tomonidan o'smir shaxsini umr yo'li davomida rivojlanish xususiyatlarini oldindan bashorat qilish bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarni baholash, oldindan aytib berish usullari va ularni boshqarish turlicha bo'lishi mumkin. Bunda shuni hisobga olish zarurki, o'smir o'z hayotining u yoki bu holatlarini odevkvat tahlil qila olish xulq-atvorida ularga asoslanib o'zi va o'z kelajagi haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi.

Bu metodik apparatni yaratib, biz shundan kelib chiqdikki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi asosiy o'zaro ta'sir darsda yuz beradi va psixologning mazkur jarayonidagi vazifasi pedagogga umrning mazkur bosqichida psixik va shaxslilik rivojlanishi me'yorlariga o'z qarashlarini birlashtirgan holda o'quvchiga nisbatan individual yondashuvni talab qiladi. Pedagog tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlardagi “men timsoli”ni korreksiya qilish haqidagi qarorni qabul qilish jarayonida o'smirlik davri xususiyatlari haqidagi bilimlar psixokorreksiyaning konkret usularini qo'llashni rejalashtirish va amalga oshirish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Bizning ishimiz pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar "men timsoli" korreksiyasi bo'yicha kasbiy faoliyati psixologik vositalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. U pedagoglarning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati modelining mazmuniy bosqichini ifodalash uchun zarur bo'lgan quyidagi uslubiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- tanlangan sohada xatti-harakatlar muvaffaqiyatini ta'minlovchi o'qituvchi shaxsining individual-tipik parametrlari;
- o'qituvchi kasbiy faoliyatida o'quvchining roli va o'rnini adekvat aks ettirishga olib keluvchi o'qituvchidagi qadriyatlar yo'nalishi va ustanovkalar;
- ajratilgan muammo va vazifalarni hal qilish yo'llari;
- o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida qo'llaydigan nazariy va amaliy bilimlar;
- Istalgan natijalarga erishishga yordam beradigan ko'nikma va malakalar;
- O'smirlarning individual-psixologik xususiyatlari va ularning o'qituvchi haqidagi tasavvurlari.

Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsolini" korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati samaradorligi pedagogning kasbiy va shaxslilik nuqtai nazardan o'zini o'zi baholashi, uning kasbiy motivasiyasi xususiyatlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Pedagog kasbiy kompetentligining majburiy sharti, bizning nazarimizda, o'qituvchining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashga shaxslilik tayyorgarligidir. Mazkur blokka kiritilgan metodikalar qo'yilgan muammolarni tadqiq etish va kasbiy o'zaro ta'sir qatnashchilari sifatida pedagoglarga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha zaruriy choralarni qo'llash imkonini beradi. Mazkur blokka maqsadlari quyidagicha bo'lgan metodikalar kiritilgan:

1. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashga tayyorligini o'rganish:
 - empatik tendensiyalarni o'rganish metodikasi (A.Mexrabian);
 - "Kasbiy faoliyat motivasiyasi" metodikasi (K.Zamfir metodikasining A. Rean tomonidan modifikasiya qilingan varianti);

Kasbiy vazifalarni hal qilishga shaxsni kiritishning psixologik mexanizmlarini diagnostika qilish metodikasi (A.D.Glotochkin, V.A.Pizin, V.N.Majukova).

2. Pedagog tomonidan o'quvchi obrazini aks ettirish xususiyatlari:

- "mening sinfim o'quvchisi" ekspert baholash metodikasi;
- Anketa.

Mazkur blokka kiritilgan metodikalar qo'yilgan muammolarni tadqiq etish va tarbiyasi qiyin o'smirdagi "men timsoli"ning yadrosini aniqlash, o'quvchilarga ta'lim jarayoni qatnashchilari sifatida psixologik yordamning adekvat choralarini ishlab chiqish imkonini beradi:

- ijtimoiy-psixologik moslashuv so'rovnomasi (K.Rodjers va M.Daymond);
- Dembo-Rubinshteyn o'zini o'zi baholash shkalasi;
- "Men kimman" metodikasi (muallif M.Kun, M.N.Ovchinnikova modifikasiyasi);
- "qadriyatlarning mustaqil tanlovi" ekspres metodikasi (Ye.B.Fantalova).

Pedagogik faoliyat biz tomonimizdan N.V.Kuzminaning besh komponenti modeliga mos ravishda qarab chiqildi. Faoliyatning loyixalashtirish va gnostik turlarini (shuningdek, ularga mos keladigan umumlashtirilgan malakalar) bevosita kuzatib bo'lmaydi, ular masalan kursni metodik ta'minlash, qabul qilingan qarorlar sifati, qandaydir hodisalarda tizimli aloqalarni ajratish, ishchi dasturlar sifati orqali qayta ko'rib chiqiladi va tuzatiladi. Konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ komponentlar kuzatib bo'linadigan hisoblanadi va konkret mashg'ulotlarda mos ravishda malakalarning quyidagi uchta blokini o'zida mujassamlashtiradi:

- o'quv axborotini taqdim etish va uni kundalik hayotda qo'llash uchun yo'nalishli asossni yaratish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil eish va faollashtirish;

Darsda emosional qulaylikni yaratish.

Mazkur blokka kiritilgan metodikalar o'quv predmeti mazmuni adekvatligini tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli" obrazini korreksiya qilish usuli sifatida

tadqiq etish va mazkur yo'nalishda o'qituvchi kasbiy faoliyatini tadqiq etish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi:

- darsni o'zi tomondan psixologik tahlil qilish;
- semantik maydonini tahlil qilish;
- o'quv amaliyotini tadqiq etish.

Mazkur blokka kiritilgan metodikalar aprobeziya qilingan eksperimental metodlar samaradorligini kuzatish, o'qituvchining o'quv predmetlarini o'tishi jarayonidagi maxsuldor va natijasiz usullarini tizimlashtirish va aniqlash hamda pedagog kasbiy kompetentligini psixologik jabhalarda oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi:

- o'quvchilar va o'qituvchilarda anketa o'tkazish;
- Etkindning munosabatlar rangli testi;
- Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi (K.Rodjers, M.Daymond).

Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun tanlangan metodlar va tadqiqot metodikalarining qisqacha tavsifi va asoslanishini keltirib o'tamiz.

Empatik tendensiyalarni o'rganish metodikasi (A.Mexrabian). Mazkur metodika emosional ziyraklik, odamlar bilan munosabatda empatik ustanovka, hamdard bo'la olish malakasini aniqlashga yo'naltirilgan. Metodika 33 ta tasdiqlovchi fikrdan iborat. Empatiyaning maksimal indeksi 33 ball. Indeks kalitlar bilan mos kelgan ballarni to'g'ridan-to'g'ri hisoblash orqali aniqlanadi. Mazkur metodika bilan ishlashda bizning diqqatimiz asosan quyidagilarga qaratildi:

- pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'qitishda individual shaxslilik yondashuviga tayyorligini aniqlashga;
- pedagogning o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilarining shaxs sifatida o'sishiga olib keluvchi imkoniyatlarini aniqlashgan.

Ye.Ye.Mironova ma'lumotlariga ko'ra, kasbdan qoniqqanlik pedagog motivasion majmuasining optimalligi bilan ahamiyatli korelyasion aloqaga ega. Boshqacha qilib aytganda pedagogning o'zi tanlangan kasbidan qoniqqanligi undagi motivasion majmua qanchalik optimal bo'lsa, shunchalik yuqori bo'lar ekan: ichki

va tashqi ijobiy motivasiyaning yuqori darajasi va tashqi salbiy motivasiyaning quyi darajasi. Bundan tashqari muallif tomonidan motivasion majmua optimalligi bilan pedagog shaxsining emosional nomuqimligi darajasi o'rtasida salbiy korrelyasion ahamiyatlilik ham aniqlangan. Motivasion majmua qanchalik optimal bo'lsa, pedagogning faolligi pedagogik faoliyat mazmuni, unda ma'lum ijobiy natijalarga erishishga intilish bilan shunchalik motivlashgan bo'ladi, shunga ko'ra emosional nomuqimlik ham past bo'ladi. Aksincha, pedagog faoliyati qochish, inkor etish, "tutilib qolmaslik" motivlari bilan shartlangan bo'lsa emosional nomuqimlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shaxsni kasbiy masalalarni hal qilishga kiritish psixologik mexanizmlarini diagnostika qilish metodikasi (A.D.Glotochkin, V.A.Pizin, V.N.Majukina). Metodika pedagog faoliyati samaradorligi, o'zini o'zi amalga oshira olish va ijtimoiy kirishish darajasini aniqlash imkonini beradi. So'rovnoma 4 ta savolni o'z ichiga oladi, ulardan har biriga 5 ta pozisiyadan iborat taklif etilayotgan javoblar shkalasi ilova qilinadi. Bizning mazkur metodika bilan ishlash davomidagi asosiy e'tiborimiz pedagoglar qiziqishlarining o'rta maxsus ta'lim muassasalarida qo'yiladigan kasbiy faoliyat talablari va shartlari bilan mos kelishini aniqlashga yo'naltirilgan edi. Mazkur metodikani qo'llash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- pedagog faoliyati yo'nalganligini aniqlash;
- tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiya qilish bo'yicha samarali pedagogik faoliyatga motivasion tayyorgarlikni aniqlash.

"Mening sinfim o'quvchisi" ekspert baholash metodikasi. Metodika kam tuzilmaga ega bo'lgan "Mening sinfim o'quvchisi" mavzusidagi inshodan iborat. Mazkur metodika bilan ishlashda bizning e'tiborimiz pedagog tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan baholash xarakteristikalarini tahliliga yo'naltirilgan. Mazkur metodikani qo'llash o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan ichki pozitsiyasini aniqlash vazifasini hal etadi.

Dembo-Rubinshteyn o'zini o'zi baholash shkalasi. Bu metodika o'quvchilar tomonidan bir qator shaxsiy sifatlar, salomatlik, qobiliyat, xarakter va x.k.larni to'g'ridan-to'g'ri baholash(shkalalash)ga asoslangan. Mazkur metodika dolzarb

hayotiy vaziyatni baholashni o'rganish uchun qo'llanilgan bo'lib, u xoxlangan baho bilan solishtiriladi va o'quvchilardagi talablar darajasi, ularning adekvatligi haqida fikr yuritish imkoinini beradi.

“Salomatlik” shkalasi bo'yicha tekshiriluvchilar o'zini o'zi baholash va obyektiv hayotiy vaziyatdan qat'iy nazar juda chekka ko'rsatkichlarni qo'ymaydilar, balki 4-5 bosqichlarni, ya'ni o'rtadan yuqori yoki o'rta zonani belgilaydilar. Ular o'zlarini o'rtacha sog'liq, aql, xarakter, baxt bilan ko'radilar (yoki ko'rishni istaydilar).

O'tkazilgan metodika noturg'un o'zini o'zi baholashga ega bo'lgan, chegaradan chiqib ketishga va bahoni buzib talqin etishga moyil o'smirlarni aniqlash imkonini beradi. Depressiya mavjud bo'lgan o'smirlar past baholashga intiladilar.

Bizning ishimiz kontekstida mazkur metodika o'smirlarda quyidagilarni:

- shaxslilik noto'kislik xususiyatlari;
- shaxs shakllanishidagi buzilishlar;
- o'z xatolariga, muvaffaqiyatsizliklariga, atrofdagilar tanbehiga hissiyotsizlikni aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, mazkur metodikaning noadekvat ko'rsatkichlari biz tomonimizdan dezadaptasiyaning bo'lishi mumkin bo'lgan markerlari sifatida qaraldi.

“Men kimman? metodikasi (M.N.Ovchinnikova modifikatsiyasi). Modifikatsiya qilingan metodika shaxsni tadqiq etishning proyektiv metodikalari sinfiga mansub bo'lib, interpretatsiyaga integrativ yondashuv bilan xarakterlanadi. Bizning mazkur metodika bilan ishlashda asosiy e'tiborimiz o'smir faoliyati refleksiv darajasini aniqlashga yo'naltirildi. Mazkur metodika bilan ishlashda biz shuningdek uning shaxsi umumiy ijtimoiy-psixologik mavqeiga hamda uning ijtimoiy moslashuvi darajasini ham inobatga oldik. Modifikatsiya qilingan metodika tekshiriluvchining o'zini o'zi baholash tizimi, uning referent yo'nalishlari, shaxslilik ma'nosi va refleksiya darajasi haqida ma'lumot olish

imkonini beradi. Mazkur metodikani qo'llash bizning tadqiqotimizda quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam berdi:

- o'smirdagi refleksiv faoliyat shakllanish xususiyatlarini aniqlash;
- o'zini o'zi namoyon qilish darajasi, o'zi haqidagi bilimlar, shakllangan "Men timsoli"ni aniqlash.
- o'zini o'zi aniqlash xususiyatlarini o'rganish.

"Qadriyatlarni mustaqil tanlash" ekspress metodikasi (Ye.B.Fantalova). Mazkur metodika maqsadi – shaxsdagi "qadriyatli yadro"ni qamrab olishdir. Mazkur metodika bilan ishlashda asosiy e'tiborimizni xulq-atvor va faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi hamda qisman o'zaro bog'liq qadriyatlarga, shuningdek, ichki nizolar, ichki vakuumlarni aniqlashga qaratdik. Metodikada uchta metodik usul harakatga keltirilgan:

- kengaytirilgan "qadriyatli qator"ni taklif etish;
- ana shu qadriyatlarning "mustaqil tanlanishi"ni keyinchalik bu qatorni 10 taga qadriyatlar nomi bilan chegaralashni ta'minlash.

Mazkur metodika o'smir uchun eng dolzarb va og'riqli bo'lgan hayotiy faoliyat sohalarini aniqlash, "real men" bilan "ideal men" o'rtasidagi mutanosiblikni topish vazifasini hal etadi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi (K.Rodgers va R.Daymond). Mazkur so'rovnoma shaxslararo munosabatlar tizimidagi adaptasiya-dezadaptasiya darajasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bizning ishimizda so'rovnomaning A.K.Osniskiy tomonidan moslashtirilgan varianti qo'lanildi. So'rovnoma shaxslararo munosabatlar tizimidagi adaptasiya-dezadaptasiya darajasini aniqlaydi va dezadaptasiya uchun asos sifatida bir qator turli-tuman holatlarni ko'rsatadi:

- o'zini o'zi qabul qilishning past darajasi;
- boshqalarni qabul qilishning past darajasi, ya'ni ular bilan konfrontasiya;
- Tabiatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan emosional diskomfort;
- Boshqalarga kuchli bog'lanib qolish, ya'ni eksternalnost;
- Ustunlikka intilish.

Bizning ishimiz doirasida mazkur metodika o'рта maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilarida dezdaptasiya darajasini aniqlash imkonini beruvchi o'lchov sifatida qo'llanildi.

“Shaxslilik differensial” anketasi. Mazkur metodika 21 ta qarama-qarshi ahamiyatli so'zlarni o'z ichiga olgan so'rovnomadan iborat bo'lib, tekshiriluvchilarga o'z shaxsiy sifatlarini talab olingan shaxslilik xususiyatlariga tayangan holda tahlil qilish taklif etiladi. Quyidagi uchta omil ajratiladi:

- kuch omili;
- baholash omili;
- faollik omili.

Mazkur metodika V.M.Bexterev nomidagi psixonevrologik institut xodimlari tomonidan moslashtirilgan. Uni ishlab chiqishdan maqsad klinik-psixologik va psixodiagnostik ishlarda, shuningdek ijtimoiy-psixologik amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan shaxsdagi ma'lum xususiyatlarni, uning o'zini o'zi anglashi, shaxslararo munosabatlarini o'rganish uchun qulay va ishonchli qurolni yaratishdan iborat edi.

Baholash omili ko'rsatkichlari bo'yicha o'zini o'zi baholashni tadqiq etish uchun mazkur metodika qo'llanilganda natijalar o'zini o'zi hurmat qilish darajasi haqida dalolat beradi. Bu omil bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar shundan ma'lumot beradiki, tekshiriluvchi o'zini shaxs sifatida qabul qiladi, o'zini ijtimoiy maqbul, ijobiy sifatlarga ega inson sifatida anglashga moyil, ma'lum ma'noda o'zidan qoniqqan.

Baholash omilining past ko'rsatkichlari insonning o'ziga nisbatan tanqidiy munosabatda ekanligini, uning o'z xulq-atvoridan qoniqmasligi, o'zini o'zi qabul qilish darajasining pastligini bildiradi. Bu omil bo'yicha alohida past ko'rsatkichlar o'z shaxsini kam qadriyatli deb his qilish bilan bog'liq nevroitik va boshqa muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Metodika qo'llashda o'zaro baholashni o'lchashda baholash omili bir odam ikkinchi bir odamni idrok etayotgandagi maftun qilish, simpatiya darajasi sifatida

tahlil qilinadi. Bunda bu omilning ijobiy ko'rsatkichlari baholanayotgan obyektga nisbatan xayrihohlikka, salbiy ko'rsatkichlar esa – uni inkor etishga mos keladi.

O'zini o'zi baholashdagi kuch omili tekshiriluvchi tomonidan anglanayotgan undagi irodaviy tomonlar qanday rivojlanganligini bildiradi. Uning yuqori ko'rsatkichlari o'ziga ishonganlik, mustaqillik, qiyin vaziyatlarda o'z kuchiga ishonish haqida ma'lumot beradi. Past ko'rsatkichlar o'zini o'zi nazorat qilishning yetarlicha emasligi, qabul qilingan xulq-atvor shaklida turishga qobiliyatning yo'qligi, tashqi holatlar va baholarga qaramlikdan dalolat beradi. Juda past ko'rsatkichlar esa astenizasiya va xavotirlanish belgisidir. O'zaro baholashda kuch omili baholash subyekti tomonidan idrok qilinayotgan ustunlik qilish-bo'ysunish munosabatlarini aniqlaydi.

O'zini o'zi baholashdagi faollik omili shaxsning ekstravertlilik sifatida tahlil qilinadi. Ijobiy ko'rsatkichlar yuqori faollik, muloqotmandlik, impulsivlikdan, salbiy ko'rsatkichlar esa – intravertlik, ma'lum darajada passivlik, xotirjam emosional reaksiyalar haqida ma'lumot beradi. O'zaro baholashda odamlardagi shaxslilik xususiyatlarining o'zaro idrok qilinishi aks etadi.

Mazkur metodika yordamida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda, doimo shuni yodda tutish lozimki, ularda insonning o'zi va boshqa odamlar haqidagi subyektiv, emosional-ma'noviy tasavvurlari, uning munosabatlari aks etadi, ular ko'pincha haqiqiy holatda qisman to'g'ri kelishi mumkin, lekin ko'pincha birinchi ahamiyatga ega.

Metodika tekshiriluvchining o'ziga va boshqa odamlarga munosabatlari subyektiv jabhalari haqida axborot olish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu ma'noda u psixodiagnostik metodlarning ikkita kategoriyasi – shaxslilik so'rovnomalari va sosiometrik shkalalar bilan taqqoslanishi mumkin. . Shaxslilik so'rovnomalardan u qisqaligi va to'g'riligi, shuningdek o'zini o'zi anglash ma'lumotlariga yo'nalganligi bilan ajralib turadi. So'rovnomalar yordamida olinadigan shaxs sifatleri haqidagi ba'zi an'anaviy ma'lumotlar ana shu metodika yordamida ham olinishi mumkin. O'zini o'zi hurmat qilish, ustunlik qilish – bezovtalanish va ekstraversiya - introversiyai darajasi nevrozlar va chegaraviy holatlarni diagnostika

qilish, differensial diagnostika, reabilitasiya jarayonidagi holatni tadqiq etish, psixoterapiya natijalarini nazorat qilish va x.k.larda yetarli darajadagi ko'rsatkich hisoblanadi. Metodikaning qisqaligi uni faqatgina mustaqil emas, balki boshqa diagnostik muolajalar bilan majmuada qo'llash imkonini beradi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida "Shaxslik differensial" o'smirlarning turli holatlardagi (Men – real, "men – hohlayman) o'zini o'zi baholashining son va sifat jihatdan taqqoslash qo'llanildi. Mazkur metodika bilan ishlashda bizning asosiy e'tiborimiz bir tekshiriluvchi tomonidan turlicha vaqtda berilgan baholarni taqqoslash imkoniyatiga qaratildi. "Shaxslik differensial" anketasining yana bir afzallik tomoni shundaki, mazkur metodika tekshiriluvchining o'z o'ziga hozir va tasavvur qilinayotgan kelajakda bo'lgan munosabatining subyektiv jabhalari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. O'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyasi qiyin o'smirlarning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun guruhlashtirilgan metodikalar quyidagi vazifalarni hal etadi:

- O'smirlardagi o'z o'ziga, katta odamlarga, o'z muammolariga munosabatlar xususiyatlari haqida ma'lumot olish;
- Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli" yadrosini aniqlash;
- Tarbiyasi qiyin o'smirlarning tipik qiyinchiliklari, ular nimalarni o'z muammolari sifatida qabul qilishlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish.

Shunday qilib, metodikalarning taqdim etilgan majmuasi pedagoglarning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyatlarining psixologik vositalarini o'rganish imkoinini beradi. Tadqiqot maqsadiga ko'ra bizning tadqiqotimizda pedagogning ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyatiga psixologik hamrohlik qilishning asosiy tamoyillarini o'rganish asosiy o'rinni egallaydi. Aynan shu vazifa tadqiqotning psixodiagnostik qurilmasini shunday tizimlashtirishni taqozo etdi.

Demak, yuqoridagi ta'kidlarga asoslangan ta'lim jarayonida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini aniqlash uslubining bayon etilishi orqali pedagogning psixodiagnostik va psixokorreksion

faoliyatining nechog'lik samaradorligiga baho berish mumkin. Bu esa eng avvalo tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik xususiyatlarini alohida o'rganish, tahlil qilishga va bu borada tegishli xulosalar chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Demak, navbatdagi paragrafda mazkur masalaga alohida to'xtalamiz.

1.2. Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish uslubi

Ma'lumki, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash jarayoni har bir o'smirning ta'lim samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining asosiy qatnashchilari o'quvchilar, o'qituvchilar va otalardir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari – o'zgarib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng dinamik jabhasi hisoblanadi. Mazmuniy va tashkiliy ma'noda u o'quvchining individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkoniyati hisoblanib u o'z ichiga ehtimolli-zaruriy va shu bilan birga shartli-zaruriy bilim va malakalarni qamrab oladi.

Bu aloqadorlikning paydo bo'lish sabablarini aniqlash uchun Dembo-Rubinshteyn metodikasi bo'yicha o'zini o'zi baholashning adekvat va noadekvat darajalariga ko'ra guruhchalarga bo'lingan o'smirlar o'rtasidagi mos keluvchi parametrlar korrelyatsiyasi tahlil qilindi. Shu narsa aniqlandiki, adekvat o'zini o'zi baholash va ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi bo'yicha adaptasiya-dezadaptasiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyasion aloqa ahamiyatsiz bo'lib qoldi. Shunday qilib, o'zini o'zi baholash ko'rsatkichining me'yor diapazonidagi tebranishlari o'smir adaptasiyasi darajasida aks etmas ekan.

Bundan tashqari ahamiyatli salbiy korrelyasion aloqadorlik "o'zini o'zi baholash" bilan "boshqalarni" qabul qilmaslik" (-0,425) o'rtasida va ahamiyatli ijobiy aloqadorlik o'zini o'zi baholash bilan boshqalarni qabul qilishning integral koeffitsiyenti o'rtasida aniqlandi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar "men timsoli" xususiyatlarini tadqiq etish o'quvchilarining mazkur kategoriyasining umumlashtirilgan psixologik portretini tuzish imkonini berdi. Tanlab olish mezonlari quyidagilardan iborat edi:

- Dembo-Rubinshteyn metodikasi bo'yicha o'zini o'zi baholashning noadekvat ko'rsatkichi;
- Dembo-Rubinshteyn o'zini o'zi baholash metodikasining alohida shkalalari bo'yicha noadekvat ko'rsatkichlar;

- Dembo-Rubinshteyn metodikasi bo'yicha talablar darajasining haddan ziyod yuqoriligi;
- Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasidagi adaptasiya koeffitsiyenti 60%dan kam bo'lgan holat;
- Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasidagi dezadaptasiyalashish ko'rsatkichining 68 balldan past bo'lishi;
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha uchinchi referent guruhyining mavjud emasligi (M.N.Ovchinnikova);
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha refleksiv faoliyatning past darajasi
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha o'zini o'zi qabul qilish va maxsuldor shaxslilik ma'nosining yo'qligi;
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha o'zini o'zi qabul qilmaslik va shaxslilik ma'nolariningsamarasizligi mavjudligi.

O'smirlar o'zlarini hozirgi paytlarida adekvat baholaydilar, o'zlarini shaxs sifatida qabul qiladilar, o'zlarini ijobiy, ijtimoiy jihatdan ma'qul xususiyatlar egasi sifatida anglashga qodirlar, ma'lum ma'noda o'zlaridan qoniqqandirlar. Bir vaqtning o'zida esa ular har doim ham o'z faoliyatlari natijalarini adekvat baholash, o'zlarini boshqalar bilan taqqoslashga erishavermaydilar. Ular o'z imkoniyatlariga tanqidiy qaray olmaydilar, ko'pincha o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydilar, ayniqsa bu narsa o'qishga bo'lgan munosabatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning ko'pchiligi uchun o'ziga nisbatan talablarning noadekvat va noreal darajasi xosdir.

Maktab o'quvchilarining xususiyatlarini o'rganishimiz natijasida olingan ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilar ma'lumotlarini ham tasdiqladi

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi ijtimoiy-psixologik mavqeyi xususiyatlarini va ularning o'z kelajaklarini prognozlashtirishlarini tahlil qilish natijasida biz hozirgi mavqye bilan kelajakdagi hayotiy istiqbol o'rtasidagi nomutanosiblikni ham aniqladik. O'smirlar hozirgi vaqtda o'zlarining hych narsaga qodir emasliklarini qady etib, bu holatning kelajakda ham o'zgarishi mumkinligini ko'rmaydilar va bo'lishi mumkin bo'lgan muvafaqiyatsizliklardan o'qishdan bosh tortish (uning

kerakmasligini bahona qilib), ishlashni istamaslik, xulq-atvorning deviant shakllariga o'tib ketish bilan qochishga intiladilar. Shu bilan bir vaqtda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar uchun kattalar bilan munosabatlar zaruriy va ahamiyatli bo'lib qoladi. O'smirlar kattalar ularda muloqotdagi sheriklarini ko'rishlarini istaydilar. Ko'pchilik o'smirlarda o'ziga, o'z oilasiga emosional jihatdan yaxshi munosabat xosdir.

Bizning tadqiqotlarimiz natijalari o'smirlar va ota-onalarning "bola-ota-ona" diadasidagi o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlarining bir-biriga mos kelmasligini ko'rsatdi. Ota-onalar fikricha, ularda bolalari bilan emosional maqbul munosabatlar shakllangan va ular bolalari bilan teng o'zaro munosabatlarga kirishishga qodirlar, xolbuki, o'smirlar fikricha esa, bu munosabatlar begonalashish va befarqlikka asoslangan. Ko'rinib turibdiki, o'smirlar birinchi o'ringa ota-onalari bilan munosabatlarda avtonomlikni qo'yadilar. Ota-onalar esa o'smirlarga shaxsiy va ijtimoiy yetuklikni uyg'unlashtirishga intiladilar. Ular o'smirlarni muvaffaqiyatsiz, nomustaqil va no'noq deb hisoblab ularga ishonmaydilar, lekin bir vaqtning o'zida ularni qiyinchiliklardan chegaralashga va ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishga harakat qiladilar. O'smirlarning fikricha ota-onalar ularni qabul qilish o'rniga ko'pincha inkor etadilar. Avvalo xulq-atvor shakllarida namoyon bo'ladigan mustaqillikka intilib, maktabning zamonaviy o'quvchisi ich-ichidan ota-onasi tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarurligini his etadi, uning yo'qligi esa o'smirdagi shaxslilik bezovtalanishini orttirib yuboruvchi stressor hisoblanadi.

O'smirlarda o'tkazilgan so'rov natijalari ota-onalar bilan oilaviy o'zaro munosabatlar rivojlanishidagi quyidagi tendensiyalarni qayd etish imkoniyatini beradi. Avvalambor ota-onasi tomonidan o'ziga befarq munosabatni his etib o'smirlar oilada befarq va rasmiy o'zaro munosabatlar tajribasini o'zlashtiradilar. Bu esa kelajakda o'z baxtli oilaviy hayotlarini qurish borasidagi o'ziga ishonmaslik va bezovtalanishga olib kelishi extimol. O'smirlar qayd etgan ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ta'sirning nomutanosibliigi ularda bezovtalanishning yuqori darajasi, o'zga ishonmaslik atrof muhitning doimiyligini his etishning

mavjud bo'lmashligiga olib keladi. Bu o'smirlarda mas'uliyatning yetarlicha ashakllanmasligiga olib kelishi extimol, chunki ularga mustaqillik berilishiga qaramasdan (yuqori avtonomlik, past darajadagi direktivlik), o'smirlar qattiq va temir intizom qoidalarini yetarli meyerda his qilmaydilar, o'z navbatida qoidabuzarlikdan keyingi sanksiyalarni ham yetarlicha qabul qilmaydilar. Bularning barchasi bo'layotgan vokealar uchun javobgarlikni boshqalarga yuklashda namoyon bo'ladigan eksternal xayotiy pozisiyaning shakllanishiga olib keladi. Ota-onalar tomonidan dushmanlik va ijobiy qiziqish balansi bizningcha o'smirlarda emosional sohadagi, o'z-o'ziga hurmatning shakllanish, o'z-o'ziga munosib shaxs sifatida munosabat sohaslarida kuchli namoyon bo'ladigan muammolar mavjudligini namoyish etadi. Demak, oila turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida o'z ichiga bolaning shaxslilik rivojlanishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jabhalarning keng ko'lamini o'z ichiga oladi. Ular orasida alohida o'rinni ota-onalarning shaxs xususiyatlari, ularning ustanovkalari va qadriyatlar yo'nalishi egalaydi. Ota-onadagi tasavvurlar, qarashlar va e'tiqodlar tizimi ularning tarbiyalovchi faoliyatida aks etadi (bilimlar ko'lemi va kutilmalar darajasi, qarashlarning o'ziga xosligi va e'tiqodlari, bola rivojlanishi xususiyatlari va uni belgilovchi omillar haqidagi tasavvurlar orqali), va ularning xulq-atvorida aks etadi, bu esa ham bola, ham o'smir shaxsi u yoki bu xususiyatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bunday qarashlari, tasavvurlari va kutilmalari aks etadigan shakl sifatida ota-onalar tasavvurlari ta'siri mexanizmi sifatida qaraladigan o'zi amalga oshiriladigan oldindan ko'ra bilishlikdir. O'quvchilar sosiumi uchun baholash oiladagi baholashdan keskin farq qiladi. Juda ko'p o'smirlar o'quv muassasalariga, o'quv faoliyatiga, shuningdek o'qituvchilar ommasiga salbiy munosabatda bo'ladilar. Maktab o'quvchilari – tarbiyasi qiyin o'smirlarning psixik rivojlanishlari xususiyatlari va darajalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning hammasi xotira maxsuldorligining pastligi, mexanik eslab qolishning ustun turishi, umumlashtirishning konkret va funksional darajalari ustunlik qilishi, abstrak fikrlashning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar. Bundan tashqari

past darajadagi mehnatga layoqatlik, tez charchab qolish hollari e'tiborni qaratadi, bu omillar o'quv ko'nikma va malakalarining shakllanmasligidagi sabablardan biridir. O'qishdagi doimiy qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizlik vaziyatiga tez-tez tushib qolish o'qishga bo'lgan ijobiy motivasiyaning pasayib ketishi va mazkur o'quvchilarda o'quv faoliyatini qabul qila olmaslikka olib keladi.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha tarbiyasi qiyin o'smirlarda refleksiv faoliyat yetarlicha rivojlanmaganligi yaqqol sezilib turadi. Tarbiyasi qiyin "Men timsoli"ga ega bo'lgan o'smirlar uchun introdezadaptiv holatlar, shuningdek tarbiyasi qiyin qizlarda atrof muhitga moslashish, ya'ni interdezadaptasiyalashish kuzatiladi. O'smirlarda ayniqsa o'zidagi shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko'rinish hisobiga o'zini qabul qilish darajasining ortishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Orttirilgan qadriyatlarni tahlil qilganda quyidagi qadriyatlar e'tiborni qaratadi: sport, oilaning mavjudligi, Vatanga muhabbat, jasurlik, hayvonlarni sevish, kabilar tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun eng ahamiyatli hisoblanadi va ularga tayanib korreksion ishni qurish mumkin. Bundan tashqari "Men timsoli" korreksiyasi texnologiyasi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish ta'lim subyektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko'zda tutadi. Bu jarayonda esa har bir pedagogning kasbiy-psixologik kompetentligini ta'minlash bilan bog'liq holatlar chuqur o'rganilishi va tahlil qilinishini lozim deb o'ylaymiz.

O'smirlar bilan, ayniqsa, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda har bir pedagogning psixologik kompetentligi va uning o'ziga xos imkoniyatlarini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mazkur muammo doirasida tadqiqotimiz davomida to'plangan fenomenologik ma'lumotlar to'plami alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda kasbiy kompetentlikning motivasion tuzilmalarining psixologik jabxalari o'rtasidagi o'zaro, shuningdek, tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "Men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatish jabhasida aloqani ochib beruvchi pedagoglarni tekshirish ma'lumotlari umulashtirilgan. Shunga ko'ra, tarbiyasi qiyin o'smirlar-

dagi “men timsoli”ni korreksiya qilish borasidagi pedagog kasbiy kompetentligi mezonlari sifatida quyidagilar tanlab olindi:

- pedagogning kasbiy motivasiyasi;
- pedagogning individual-shaxslilik xususiyatlari (empatiya darajasi, emosional xayrixoxligi, tolerantligi, o’qitishda individual-shaxslilik yondashuviga tayyorligi);
- tarbiyasi qiyin o’smir shaxsini bilish va ularni ta’lim jarayonini tashkil etishda hisobga olish;
- tarbiyasi qiyin o’smirlarda shaxslilik bilan bog’liq ijobiy ustanovkalarni hisobga olish.

O’qituvchilarning o’smirlar haqidagi tasavvurlarini o’rganish maqsadida 60 nafar pedagoglardan so’rovnoma o’tkazdik. Ularning ko’pchiligi yetarlicha katta kasbiy tajribaga ega bo’lgan mutaxassislardir. Shakllangan xayot tarzi, jamoaga, ish joyiga bog’lanib qolish – bu omillar talim muassasasi pedagoglarining motivasiyasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ular o’quv muassasasiga kirgan barcha o’quvchilarni o’qitishga tayyorlar. O’qituvchilar faoliyatini umumiy tarzda tadqiq etish natijalari tahlili shuni ko’rsatdiki, so’rovnoma o’tkazilgan barcha pedagoglarga emosional ziyraklik, hamdardlik xos. Barcha o’qituvchilarda o’quvchilar bilan muomalada empatik ustanovkalar mavjud.

O’qituvchilar bilan ishlashning ikkinchi bosqichida “Mening sinfim o’quvchisi” mavzusida kichik tuzilmaviy insho yozish taklif etildi. Rag’batlantiruvchi yordam sifatida quyidagi savollar berildi:

- O’zingiz hozir o’qitayotgan va ilgari o’qitgan o’quvchilarni eslang?
- Eslashga harakat qiling, ulardagi qaysi xususiyatlar sizlarning munosabatlaringizni osonlashtirgan, qaysilari murakkablashtirgan?

“Mening sinfim o’quvchisi” kichik tuzilmaviy inshoni kontent-tahlil qilish tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlovchi o’qituvchilar o’rtasida ikkita qutbli guruhni ajratish imkonini berdi:

- guruh – yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega o’qituvchilar;

guruh – past darajadagi kasbiy kompetentga ega o'qituvchilar.

Turli darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglar motivasion komponentlarini taqqoslash uchun biz qiyosiy tahlil o'tkazdik.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikkala guruh pedagoglari motivasiyasi tuzilmasida ichki motivasiya ustunlik qiladi, biroq past darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarda ikkinchi pozitsiyada tashqi salbiy motivasiya, yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarda esa – tashqi ijobiy motivasiya turishi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash mumkinki, yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega o'qituvchilar guruhidagi motivasion mutanosiblik eng yuqori darajadagi optimalikka ega bo'lib, past darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilarning motivasion kompleksi optimalligidan ahamiyatli farq qiladi.

Olingan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, motivasion tuzilmaning barchasidan turli darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilar bir birlaridan tashqi salbiy motivasiyani aks ettiruvchi komponent jixatidan keskin tafovut qiladilar. Past darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilarda rahbarlar va hamkasblar tanqididan qochish, shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan jazolash yoki noxushliklardan uzoqlashish ular faoliyatini motivasion ta'minlashda yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilarga qaraganda juda katta o'rin egallashi ma'lum bo'ldi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, har ikkala guruh o'qituvchilarining ichki motivasiyasi o'rtasida ishonchli farqlar kuzatilmaydi, lekin bu motivasion komponentning tomonlaridan biri bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi. Shunday qilib, aynan shu faoliyatda o'zini to'la amalga oshirishga bo'lgan yuqori ehtiyoj past darajadagi kasbiy kompetentlikka ega o'qituvchilarga qaraganda yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega o'qituvchilarda namoyon bo'ldi. Shaxsning kasbiy masalalarni hal qilishga kirishishi psixologik mexanizmlarini diagnostika qilish metodikasi pedagog faoliyati samaradorligini, uning o'zini o'zi amalga oshirish va ijtimoiy kirishish darajasini aniqlash imkonini berdi. Bu metodika bilan ishlashda bizning asosiy e'tiborimiz pedagoglardagi qiziqishlarning o'rta maxsus

ta'lim muassasalarida qo'yiladigan kasbiy faoliyat talablari va sharoitlariga mos kelishini aniqlashga qaratildi va shu narsa aniqlandiki, pedagoglar tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashga tayyor: pedagoglarning faoliyatga ijtimoiy kirishish ko'rsatkichi, ya'ni pedagoglarning qiziqishi ko'p ma'noda ularga qo'yiladigan kasbiy faoliyat talablariga va sharoitlariga mos keladi. Shaxsdagi qiziqishlarning kasbiy faoliyat sharoitlari va rolli talablariga mos kelishini aks ettiruvchi o'zini o'zi amalga oshirish ko'rsatkichi kasbiy kompetentlikning yuqori darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarda va kasbiy kompetentlikning past darajasiga ega bo'lgan o'qituvchilarda ahamiyatli tafovutlarga ega ekanligini ko'rsatdi.

II-BOB. PEDAGOG FAOLIYATINING TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BILAN ISHLASH BO'YICHA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI

2.1. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi bo'yicha psixologik yondashuv modeli

Bizningcha, o'qituvchining tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturini quyidagi xususiyatlarga ega bo'lganda samaraliroq bo'ladi:

- o'qituvchining pedagogik mehnati muammolarini butunligicha idrok eta olish;
- individual yondashuvni qo'llagan holda psixologik yordam dasturini tuzishga kirishish;
- ta'limda shaxslilik-rivojlantirish yondashuviga tayanish.

Binobarin ta'lim muassasalari xarakterining o'zgarishi tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi jarayoniga faqat o'qituvchilarni emas, balki keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash zaruratini taqozo etadi.

Aytish joizki, har bir pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashiga psixologik yondashuv konsepsiyasining mohiyati mutaxassis-lar va jamoatchilik sa'y-harakatlarini tarbiyasi qiyin o'smirlar hayotiy faoliyatini optimal sharoitlarini ularning shaxslilik xususiyat-larini hisobga olgan holda mazmuniy va tashkiliy-metodik ta'minlash uchun kompleks, ilmiy jihatdan asoslangan koordinasiyalashgan holda birlashtirish dan iborat.

Ish davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologning o'qituvchi bilan ta'lim muassasasi sharoitidagi ishi kompleks xarakterga ega bo'lib, ma'ruza, treninglarni o'z ichiga olgan seminarlar, treninglar, ish o'yinlari kabi faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab olishi kerak. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashga psixologik yondashuv modelining asosiy maqsadi o'qituvchi ishining taktika va strategiyasini kasbiy-shaxslilik rivojlanishi hisobiga o'zgartirish

hamda tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan korreksiya ishlari jarayoniga keng doiradagi jamoatchilikni jalb qilishdan iborat.

Model ikki qismdan tashkil topgan:

Birinchi qism, "o'qituvchi" deb nomlanib, psixolog-o'qituvchi diadasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etadi. Mazkur qismning mazmuni o'qituvchining kasbiy shaxslilik xususiyatini deviant o'smir xususiyatlarini korreksiyalash bilan faollikning yaratilishi bilan belgilanmas.

Ikkinchi qism esa shartli ravishda "Jamoatchilik" deb nomlanib, o'qishdan tashqari vaqtda bolalar va o'smirlar bilan bevosita bog'liq mutaxassislarning keng doiradagi o'zaro ta'sirini tashkil etadi. Bu modulning xususiyati psixolog va o'qituvchi o'zaro ta'sir doirasini unga davlat va jamoat tashkilotlarini qo'shish hisobiga kengaytirishdir. Bundaylarga quyidagilar kiradi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limi mutaxassislari;
- voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektorlari;
- o'smirlar uchun xavfli profil shifokorlari (narkologlar, venerologlar, ginekologlar, infeksiionistlar, ftiziatrlar va h.k.);
- tumandagi sport tashkilotlari mutaxassislari;
- maxalla, yoshlar tashkilotlari vakillari va boshqalar.

Alohida ta'kidlash joizki o'quvchi uchun muvaffaqiyatli vaziyatning yuzaga kelishi to'g'ridan-to'g'ri pedagogning kasbiy va shaxslilik doirasida o'zini o'zi baholashi, uning kasbiy motivasiyasi xususiyatlariga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, psixologning pedagoglari bilan asosiy ishi o'qituvchi tomonidan o'z kasbiy pozitsiyasini aniqlab olishga, shaxsiy mas'uliyatini dolzarblashtirishga va tarbiyasi qiyin o'smirdagi "men timsoli"ni o'zgartirishga ijobiy ustanovkani shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Dastur vazifalarga bog'liq ravishda har bir qism quyidagicha bo'limlarga ega:

1. "O'qituvchi":
 - pedagoglarning psixologik ma'rifati "O'qituvchining psixologik maktabi";

- o'ziga o'zi yordamni tashkil etish;
- o'zini o'zi tushunish, anglash va dezadaptsiyalashgan o'smirlar bilan samarali o'zaro ta'sirga kirishishni rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazish;
- psixologik usullar va texnikalarni qo'llash bilan dars mazmunini ishlab chiqishga yordam berish;
- ota-onalar majlisi o'tkazish texnologiyasini puxta o'zlashtirish;

2. "Jamoatchilik"

- davra suhbatlari;
- manfaatdor mutaxassislar bilan psixologik maslahatlar olib borish.

Model tarkiblarini ketma ketlikda amalga oshirib, biz umumiy vazifani – o'qituvchining o'quvchilarning mazkur kategoriyasi bilan ulardagi "men timsoli"ni hisobga olgan holda ishlashidagi kasbiy kompetentligini rivojlantirishni hal etdik.

Bosqichlarning umumiy ketma-ketligi quyidagicha tuzilgan:

- hal qilishni talab etayotgan muammoli vaziyatga talabnoma;
- ifoda etilgan mavzu bo'yicha muhokama uchun materialni o'rganish;
- mazkur mavzu bo'yicha savollar;
- kichik guruhlarda muhokama qilish;
- qaror qabul qilish;
- yakuniy xulosalar chiqarish.

Pedagoglarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish bo'yicha batafsilroq axborot yo'nalishi ishiga to'xtalib o'tamiz, chunki pedagoglarga tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda o'z vaqtida yordam berish va o'ziga xos tarbiyaviy profilaktika psixologik nuqtai nazardan ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Zero, psixologik xizmatning vazifasi – pedagoglarga o'smirlar davrining xususiyatlari, xususan, tarbiyasi qiyin o'smirlarning shaxslilik xususiyatlari, xavfli omillar haqida ma'lumotlarni taqdim etish orqali – pedagoglarda o'smirlarda yuz berishi mumkin bo'lgan shaxslilik o'zgarishlariga psixologik tayyorgarlik uchun sharoit yaratishdir.

Bu yo'nalishda quyidagi vositalar qo'llaniladi:

- ma'ruzalar;
- informasion varaqalar;
- suhbatlar;
- o'qituvchining psixologik maktabi.

O'ziga o'zi yordamni tashkil etish. Bizning tadqiqotimiz ma'lumotlariga ko'ra ta'lim muassasalari real amaliyotida tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi psixologik kompetentlikka ega bo'lgan pedagog juda ko'p xulq-atvor reaksiyalarini o'z ichiga olgan o'smirlardagi deviasiyalarga tolerant bo'lishi kerak. Tolerantlik deganda, bizning tadqiqotimiz doirasida, pedagogning o'quvchilarga munosabatlaridagi o'smirlar xulq-atvoriga, ularning hissiyotlari, fikrlari, g'oyalariga sabr-toqatlilikda namoyon bo'ladigan kasbiy tolerantlik tushuniladi. Kasbiy tolerantlik bu holatlarni vaqtinchalik deb qabul qilish va o'qituvchining emosional reaksiyasini emas, balki kognitiv tayyorgarligini nazarda tutadi. Bizning tushunishimizda tolerantlikning namoyon bo'lishidagi asosiy prinsip – boshqaning o'rniga o'zini qo'ygan holda, dunyoni boshqaning ko'zi bilan ko'ra olishdir. Agar u bo'lmasa, kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga halaqit beruvchi va mutaxassisning kasbiy destruktivligiga olib keluvchi boshi berk ko'chaga kirib qolish yuz beradi. Shuning uchun uni yengish va oldini olish yo'llarini izlash zarur. Tolerantlik dasturlari birinchi navbatda o'qituvchilar tayyorgarligi va treningiga qaratilgan. Agar o'qituvchi o'ziga nisbatan sabr-toqatli bo'lmasa, o'z shaxsini yetarlicha baholay olmasa, hurmat qilmasa, unda bularning hammasini yaqinlariga, birinchi navbatda o'quvchilariga o'tkazishning ajoyib reaksiyasi yuz beradi. O'qituvchi shaxs bo'lganda, unda o'quvchilari uchun nimanidir bera oladi. Ishlarimiz natijalariga tayangan holda biz shunday xulosaga keldikki, pedagoglar bilan ishlashda psixolog o'qituvchini o'quvchilarning o'qishi uchun sharoit yaratishga, shu jumladan o'z faoliyatida subyekt-subyekt munosabatlarini qabul qilishga o'rgatilishi zarur.

Ana shu asosda mazkur bo'limning quyidagi asosiy vazifalari aniqlandi:

- o'qituvchi bilan o'z o'zini anglash, o'zini o'zi tushunishni rivojlantirish, o'quvchilardagi tafovutlarga adekvat reaksiya bildirishni shakllantirishga ko'maklashish;
- kasbiy stereotiplarni yengishga va o'qituvchi-o'quvchi diadasida xulq-atvorning samarali shakllarini topishga ko'maklashish;
- o'quv hamkorligiga va fasilitalashgan muomala ko'nikmalariga o'rgatish;
- bir qator psixogigiyenik xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish (samarali muomala, atrofdegilar bilan maxsuldor o'zaro ta'sir, stresslarni yengish, o'zining va o'zgalarning hissiyotlarini tushunish, muammolarni hal qilish).

Mazkur bo'lim doirasida ishni tashkil etish uchun biz quyidagi yondashuvlarga tayandik:

- faol o'qitish, ya'ni qatnashchilarni mashg'ulotlarga rag'batlantiruvchi va o'qishda ularga o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam beruvchi yondashuvlarning muhimligini inobatga olish;
- alohida qatnashchilarning muammolari va manfaatlarini hisobga olish imkonini beruvchi masalalar muhokamasini tashkil etish;
- ko'rgazma, amaliyot, qayta aloqaga asoslangan amaliy vaziyatlarni modellashtiruvchi va qayta aloqani ta'minlovchi yondashuvlarini tashkil etish;
- tadqiqotlar tahlilini o'qish jarayonini nazorat qilish usuli sifatida rag'batlantiruvchi yondashuvlar, doimiy baholash;
- o'smirni pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Bizning ishimiz shuni ko'rsatdiki, mazkur yondashuvlar pedagogga faqatgina o'z muammolarini hal qilish ustida ishlashga imkon berib qolmasdan, balki o'z o'quv jarayoniga mas'uliyatni his etishiga yordam beradi va shu tariqa tolerantlikni va pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga olib keladi.

Bizning ishimiz maqsadiga ko'ra psixologning o'qituvchi bilan ishlash jabhasi quyidagilardan iborat:

- darsni o'zi tomonidan tahlili qilish yordamida o'quv amaliyotini tadqiq etish;

- o'z kasbiy motivlari va maqsadlari, kasbiy ustanovkalarini tahlil qilish;
- o'quv hamkorligi ko'nikmalarini rivojlantirish;
- fasilitasiyalashgan muomala qobiliyatini rivojlantirish.

Bizning taxminimizcha, o'quv amaliyotini tadqiq etish o'qituvchi malakasini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'quvchilarni o'qitish davomida axborotni yig'ib va tahlil qila turib, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyati haqida qayta aloqani amalga oshiradi. O'quv amaliyotini o'zi tomonidan tadqiq etish o'zini o'zi tushunish, o'z ishini takomillashtirish yo'llari va usullarini izlab topish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari o'quv amaliyotini tadqiq etish, eng avvalo pedagoglarga o'z diqqatini birinchi navbatda o'z faoliyati yutuqlariga, keyin esa kamchiliklarini ko'rishga qaratish imkonini beradi. O'quv amaliyotini tadqiq etish o'tkazilgandan keyin o'qituvchilarning ko'pchiligi o'z sa'y-harakatlarini barcha o'quvchilardagi individual extiyojlarni maksimal hisobga olishlariga yordam beruvchi takomillashtirilgan metodlarga qaratishlari zaruriyati haqidagi xulosaga kelishadi.

O'z kasbiy motivlari va maqsadlari, kasbiy ustanovkalarini o'zi tomonidan tahlil etish pedagoglar diqqat-e'tiborini kasbiy faoliyat muvaffaqiyatiga olib keluvchi omillarga qaratish imkonini beradi.

Bizning ishimiz davomida shu ma'lum bo'ldiki, ta'lim muassasalarida hamkorlik o'qitishni tashkil qilish o'qituvchilar hali yetarli tayyor bo'lmagan o'quv guruhleri ishini murakkablashtirish va takomillashtirishni talab etadi. Shuning uchun psixolog va pedagogning o'quv hamkorligi ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi ishi shunday qurilishi kerakki, qatnashchilarga o'quv hamkorligi orttirilgan ko'nikmalarini qo'llash topshiriqlarini bajarishda amaliyot o'tash imkoni bersin.

Psixologning o'qituvchi bilan olib borgan mashg'ulotlaridan birinchi tadqiq etar ekanmiz, uning maqsadi – kasbiy faoliyatni o'zi tomonidan tadqiq etish, o'z faoliyati muvaffaqiyati mezonlarini ajratishdir. O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

- “qog’ozda Sizning o’qitishdagi ilgarigi yutuqlaringizni yozing, o’zingiz ta’sir ko’rsatgan yoki yordam bergan o’quvchilarni aytib o’ting”;
- “Sizning nuqtai nazarangizda muvaffaqiyatli o’tgan darsning rejasini tuzing”;
- “alohida qog’ozda darsning muvaffaqiyatini belgilab bergan lahzalarni yozing”;
- “ishchi guruhlarda berilgan javoblarning turli-tumanligini ko’rib chiqing, olingan ma’lumotni anglashga harakat qiling, olingan ma’lumotni Siz qayerda qo’llashingiz mumkin?”
- “guruhiy hisobot tuzing, unda muvaffaqiyatli o’qitish haqida bilib olgan barcha narsalarni bayon qiling”.

O’quvchilarning mazkur savollariga javobi tahlil qilindi. Bundan tashqari muayyan maqsadga qaratilgan treninglar ham olib borildi.

Treninglar. Trening guruhleri shaxsni rivojlantirishga, samarali kommunikativ ko’nikmalarni shakllantirishga, o’zini va boshqalarni anglash sohalarini kengaytirishga yo’naltirilgan. Ishning mazkur modeli – faol bo’lib, tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda dolzarb hisoblangan xulq-atvor ko’nikmalariga o’rgatishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari trening o’qituvchilarga guruhning psixologk qo’llab-quvvatlashidan foydalanib, o’z muammolarini hal qilish yo’llarini mustaqil tuzib olishlari uchun imkon beradi. Hozirgi paytga kelib, bir qator tadqiqotlarda o’qituvchilarni o’qitishning faol metodlarining an’anaviy metodlarga qaraganda ustunlikka ega ekanligi ko’rsatildi. O’qitishning faol metodlaridagi markaziy g’oya to’sqinlik qiluvchi chegaralanishlar, to’siqlar komplekslarni olib tashlash yo’li bilan shaxs salohiyatini ozod etib, uning rivojlanishiga yordam berishga intilishdan iborat.

Biz taklif etayotgan dasturning maqsadi – o’qituvchidagi xulq-atvor egiluvchanligini rivojlantirishdir, ya’ni o’qituvchi tomonidan o’quvchiga nisbatan munosabatda individual-shaxslilik prinsipiga, shuningdek o’z ishidan qoniqish olib, ham o’qituvchi, ham o’quvchi shaxsining ijodiy rivojlanish prinsiplariga tayangan holda ishlash imkoniyati va zaruratini asta-sekin anglashdir.

Dastur vazifalari:

1. O'qituvchi va o'quvchi ichki tizimini an'anaviy stereotiplashtirilgan shakldan shaxslilik-rivojlanti-rish shakliga qayta qurish.
2. O'qituvchida o'z ehtiyojlari va qadriyatlarini anglash, maqsadlar qo'yish va tipik hamda notipik pedagogik vaziyatlarda optimal xulq-atvor strategiyasini tanlash qobiliyatini rivojlantirish.
3. O'qituvchidagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.
4. O'qituvchida refleksiya va kasbiy o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Har bir mashg'ulot muolajasi quyidagi ketma-ket joylashgan bosqichlarni bajarishdan iborat:

- qatnashchilar uchrashuvi (avvalgi mashg'ulotdan keyingi tanishuv va tajriba muhokamasi);
- qatnashchilarning guruhviy muhokama davomida ma'lum mavzu bo'yicha muammolar va kutilmalari ro'yxatini tuzish;
- ish davomida konkret muammo yuzasidan psixologik bilimlar, ko'nikma va malakalarning dolzarblik darajasini aniqlash;
- qatnashchilarning yangi bilim va tajriba olishga bo'lgan motivasiyasini belgilash;
- juftliklar, mini-guruhlar yoki umumguruhviy o'zaro ta'sirda yangi zahiralarini ijodiy izlash;
- olingan ko'nikmalarni mini-guruhlar yoki umumiy doirada pedagogik amaliyotdan konkret namunalar asosida amaliy qayta ishlash;
- pedagoglar tomonidan treningda psixologik instrument-lardan foydalanish natijalarini umumiy muhokama qilish;
- Guruhviy ish natijalariga yakun yasash va tugatish, psixologik praktikum.

“O'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatlari” psixologik amaliyotning maqsadi – kasbiy stereotiplarni yengishga yordam berish va o'qituvchi-o'quvchi diadasida samarali xulq-atvor shakllarini topish, shuningdek ijobiy qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish, o'zini o'zi hurmat qilishni va shaxsning umumiy

o'sishini rivojlantirishdir. Pedagoglarda yuqorida zikr etilgan ko'nikmalar va shaxslilik xususiyatlarini shakllantirish uchun dasturda 47 ta turli tuman psixotexnik usullar mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- "Mening kasbiy "Men"im";
- "Men va Men, Men va boshqalar";
- "Hissiyotlar"
- "Sheriklik o'qitish";
- "Qadriyatlar";
- "Qarorlar";
- "Stressni yengish".

Har bir bo'lim treningning alohida bosqichidan iborat bo'lib, unda zaruriy kasbiy ko'nikmalar avtomatlashtiriladi.

Men-konsepsiyasiga bag'ishlangan mashqlar o'xshash psixologik vazifalarni bajaradi. Avalambor, ular pedagoglarni aynanlashtirish va hissiyotlarni adekvat ifoda etishga o'rgatadi, shuningdek, o'z hamkasblari bilan o'z hissiyotlarini o'rtoqlashishga va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni muhokama qilishga sharoit yaratadi.

"Men va men", Men va boshqalar" bosqichining vazifasi – samarali muomalaga o'rgatishdir. Buning uchun o'qituvchilarga o'zlari va o'z yutuqlari haqida ijobiy fikr bildirishlari, boshqalardan tafovutlariga e'tibor qaratishlari, atrofdagilarga ishonchli tarzda yaxshi gaplar aytishlari uchun imkoniyat beriladi.

Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar tinglashga, muomalada keng tarqalgan xatolardan qochishga o'rganadilar, "Sheriklik o'qitish" bo'limidagi mashqlar davomida – hamkasblari bilan hamkorlik qiladilar, atrofdagilarni qo'llab quvvatlashga o'rganadilar.

"Qadriyatlar" mashqlari majmuasi insondagi turli qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan bo'lib, shaxs tomonidan qadriyatlarni mustaqil tanlash g'oyasiga asoslangan.

"Qarorlar" bo'limidagi psixotexnik usullar turli qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ilg'ab chiqishga qaratilgan. Pedagoglar

muammoli vaziyatlarda muqobil qarorlar qabul qilish, mas'uliyatli qarorlarga kelish tajribasini oladilar.

Stresslarni yengishga o'rgatish stress vaziyatlarini aynanlashtirish, yordam va o'z hissiyotlari hamda xulq-atvorini boshqarish haqida so'rashni bilish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bo'limning mazmuni shunday tuzilganki, qatnashchilarga o'quv hamkorligi bo'yicha orttirilgan ko'nikmalarni qo'llash bilan topshiriqlarni bajarishda amaliyot o'tash imkoni beriladi. Bizning dasturimizda turli tuman texnika va usullar qo'lanildiki, ular o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagoglari uchun moslashtirilgan bo'lib, o'qituvchining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi kasbiy kompetentligini rivojlantirish kontekstida qo'llanildi. Zero, guruh psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarini qo'llash barcha umumta'lim maktablarining aksariyat pedagoglari to'qnash keladigan juda ko'p muammolarni hal qilishga xizmat qildi.

Ota-onalar majlislarini o'tkazish texnologiyasiga o'rgatish. Psixolog ishining mazkur yo'nalishdagi maqsadi – pedagoglarni ota-onalar majlislarini ijobiy jabhada o'tkazish usullariga o'rgatish, ularda tarbiyasi qiyin o'smirlarning ota-onalari bilan sheriklik asosidagi o'zaro ta'sir qilish ko'nikmalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotimiz natijalariga tayangan holda biz shunday xulosaga keldikki, o'qituvchilarni ota-onalar majlislarini o'tkazish texnologiyalariga o'rgatishda psixolog uchun ta'lim muassasasi o'quvchilarining ota-onalari maxsus xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda zarur. O'quv muassasasining oila iqlimi va ota-onalarning tarbiya maromiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bir qarashda juda chegaralangandek tuyuladi. Ota onalar va o'quv muassasasi o'rtasida ma'lum munosabatlar shakllanib bo'lgan. Bu munosabatlar xususiyati o'quv muassasasi doirasida yaqqol ko'zga talanadi. Shuning uchun ular o'qituvchi bilan o'zaro ta'sirga istar-istamas boradilar. Bundan tashqari, maktab amaliyotidagi ayrim ziddiyatlar ko'pincha ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni qiyinlashtiradi. Ota-onalar tasavvurlari, qarashlari va e'tiqodlari tizimi ularning tarbiya amaliyotlarida aks etadi (bilimlar ko'lamini va kutilmalar

darajasi, qarashlar va e'tiqodlarning o'ziga xosligi, bola rivojlanishi xususiyatlari va uni belgilab beruvchi omillar haqidagi tasavvurlar), va ularning xulq-atvorida namoyon bo'ladi, bu esa o'smirning u yoki bu shaxslilik xususiyatlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglarni ota-onalar bilan o'zaro ta'sir texnologiyalariga o'rgata turib, psixolog shunga alohida e'tibor qaratilishi lozimki, o'qituvchining ota –ona bilan o'zaro ta'siri muvaffaqiyati avvalambor, ota-onalar bilan ishlashni faqatgina o'zlashtirish uchun kurash sifatida qabul qilib, tarbiya uchun butun mas'uliyatni ota-onaga yuklashdan iborat an'anadan voz kechishni talab etadi. O'qituvchi ota-onalarga o'z farzandlarining ijobiy xususiyatlari va qobiliyatlarini ko'ra olishlariga yordam berishi zarur. Ular, ya'ni ota-onalar o'z farzandlari muhabbatiga loyiq ekanliklarini tushunishlari kerak. O'qituvchi hamma narsani tushunuvchi sherik sifatida o'zini taklif etishi lozim. Pedagoglar ota-onalar bilan ishlashda quyidagilarni hisobga olishlari zarur:

- O'smirni to'g'ri tarbiyalash uchun barcha mas'uliyat ham ota-ona ham pedagog zimmasida bir hil darajada yondashadi;
- ota-onalar o'z farzandlarining rivojlanish jarayoniga ulkan va qimmatli hissa qo'shishlari mumkin;
- Ota-onalarning kuchli tomonlari (o'smirlar haqida bilishlari) pedagoglar tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi qo'shimcha jabha sifatida hisobga olinishi va qo'llanishi lozim;

Psixologning o'qituvchilar bilan ishlashdagi mazkur jabhasi pedagoglarda tarbiyasi qiyin o'smirlarning ota-onalarini qo'llab-quvvatlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan vazifalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur bo'lim vazifalari:

- o'qituvchilar tomonidan dezadaptsiyalashgan o'smirlarga yordam berish va qo'llab-quvvatlash yo'llarini ishlash borasidagi ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarini anglashi;
- ota-onalarni ta'lim jarayonining teng huquqli qatnashchilar sifatida qabul qilishni shakllantirish;

Mazkur modul mashg'ulotlaridan birining varianti sifatida psixolog va pedagogning quyidagi uchrashuvini misol keltirish mumkin:

1. Hal qilishni talab etadigan muammoli vaziyatga talabnoma: “Shunday yo'llarni qarab chiqingki, ular yordamida ota-onalar majlislarini ota-onalar va maktab o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish uchun qo'llash mumkin bo'lsin”.

2. E'lon qilingan mavzu bo'yicha muhokama uchun materialni o'rganish: “o'rganish uchun uchrashuv qatnashchilariga materiallar tarqatiladi”.

3. Mazkur mavzu bo'yicha ko'rib chiqiladigan savollar: “3 kishidan iborat guruhlariga birlashing. Bir qatnashchi xohishiga ko'ra o'qituvchi rolini ijro etadi, boshqasi kuzatuvchi sifatida, uchinchi esa ota-ona sifatida qatnashadi. Uchchalangiz Sizlarga ota-onalar murojaat qilishi mumkin bo'lgan real muammo bo'yicha muxokama qiling. Bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– mening o'g'lim o'quv yurtiga kirishni istamaydi;

- mening qizim ximiya o'qituvchisining tushuntirishlarini tinglashni istamaydi;

- mening o'g'lim o'rtoqlarining qaltis hazillaridan xafa bo'ladi.

4. Kichik guruhlarda muhokama qilish: Kuzatuvchi xulosalarini tinglang va olingan natijalarni muhokama qiling.

5. Yakun yasash: “Mashqni bajarish davomida Siz nimalarni o'rgandingiz? Ota-onalar majlislarini o'tkazishni qanday qilib yaxshilash mumkin?”

Dars mazmunini tuzishda psixologik usullar va texnikalardan foydalanishga yordam berish. Psixolog ishining diqqat markazida o'qituvchilarga dars sharoitida dezdaptasiyalashgan o'smirlar bilan ishlashda qo'llab-quvvatlash va yordam berishni izlash masalalari turadi. Bu modulning mohiyati pedagog diqqatini o'qish jarayoniga, ya'ni barcha o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olish zarurati va ulardan har biri uchun o'qitish maromini aniqlab olishga qaratiladi. Qo'llab-quvvatlashning eng samarali metodlari pedagog tomonidan sinf sharoitida amalga oshiriladigan hamda individual ish olib borish uchun o'smirlarni vaqtinchalik ajratishni talab etmaydigan metodlardir. Psixolog o'qituvchiga ish rejasini

tuzishda, o'quvchilar uchun o'quv materialini osonlashtiruvchi psixotexnikalarni qo'llashda yordam beradi. Psixolog pedagogga o'qitish metodlariga moslashishda ko'maklashadi. Turli o'quvchilarga turli darajada harakat qilish uchun imkon beradigan guruhiiy ish metodlarini taklif etadi. Guruhiiy va individual shakldagi ish o'rtasidagi mutanosiblik sinf ishini tashkil etishda muhim holat hisoblanadi.

Mazkur modul doirasida pedagoglar bilan ishlashda katta e'tibor o'qituvchining nutqiga qaratiladi. Nutq o'quvchilarning turli guruhleri uchun moslashishga muxtojlik sezishi mumkin, ya'ni o'smirlarga topshiriqlarni turli variantlarda taklif etish kerak. Psixolog o'z tavsiyalarini darsning istalgan jabhasiga tatbiq etadi. Aniq bir mavzudagi tayyorlanish ishida psixolog pedagog bilan quyidagi punktlarni muhokama qiladi:

- o'zi uchun va o'quvchilar uchun darsning real maqsadlarini qo'yish (pedagog tomonidan o'quvchi imkoniyati va mazkur darsning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini aks ettirishning o'zaro adekvatligi);
- bu maqsadlarga erishish mezonlarini ajratish;
- u yoki bu maqsaddan og'ish mezonlarini hamda vaziyatni korreksiya qilish yo'llarini muhokama qilish.

O'quvchining o'quv ishlari usullari bilan ishlash shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonga tayangan holda quriladi.

Shaxslilik konsultasiyasi. O'qituvchilar tomonidan o'ziga yordam berish elementlari va tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsini o'rganishni egallash natijalariga ko'ra olib boriladi.

Doira stoli. Doira stoli, sheriklik prinsiplari asosida quyidagilar qatnashadigan forumdir:

- o'quv muassasi pedagogik jamoasi;
- o'smirlar bilan propedevtik ish olib borishga mas'ul huquqni himoya qilish organlari vakillari;
- yoshlar bilan ishlovchi jamoat tashkilotlari vakillari.

Doira stolining yetakchi maqsadi kasbiy va fuqarolik faolligini oshirish, har bir qatnashchi tomonidan guruhiiy o'zaro ta'sir, davomida guruhiiy qaror qabul

qilish uchun mas'uliyatni anglashdir. Doira stoli orqali konkret loyihalar asosida tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsini rivojlantirishga yordam berish dasturi amalga oshiriladi. Doira stolini o'tkazish mohiyati turli tashkilotlar, turli yo'nalishdagi mutaxassislar harakatlarini koordinasiyalashgan holda birlashtirishdan iborat. Doira toli qatnashchilari tahlil uchun o'z takliflari, kuzatuvlari va fikrlarini taklif etadilar.

Doira stoli ishining yetakchi prinsipi – har bir qatnashchi fikrini inobatga olishdir. Bu ishda barcha hamkasblari bilan o'z fikrlari, ikkilanishlari bilan almashishlari, o'zlaridan farqlanuvchi nuqtai nazarni tinglash va tushunish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Doira stoli qatnashchilarning kasbiy qarashlari rivojlanishi va o'qishi uchun, qabul qilinayotgan qarorlar uchun shaxsiy mas'uliyatni anglash uchun sharoit yaratadi.

Doira stolining asosiy vazifasi qaror qabul qilishga, kasbiy va shaxsiy mas'uliyatni orttirishga yo'naltirilgan birgalkdagi ishga qiziqishni shakllantirishdir. Doira stoli mazkur modeldagi ish bo'limlaridan biri sifatida barcha qatnashchilar tomonidan o'rta maxsus ta'lim muassasasi va jamiyat o'rtasidagi izchilroq o'zaro ta'sirni o'rnaish zaruratini tushunish imkonini beradi. Manfaatdor shaxslarning koordinasiyalashgan o'zaro ta'siri ishlab chiqilgan qaror uchun mas'uliyatni anglashga yordam beradi, shuningdek, har bir qatnashchining ahamiyatini oshiradi. Doira stoli mavzusi sifatida muhokamaning an'anaviy shakllarida qaror topmagan yetilgan muammolar tanlanadi. Har bir doira stoli o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tashabbuskor guruh tomonidan tayyorlanadi. Tayyorgarlik o'z ichiga mazkur mavzuga oid axborot to'plash uchun so'rovnomalar, intervyu, suhbatni oladi va tadqiqiy xarakterga ega bo'ladi. Muammo ustida guruhiy ish uning yuzaga kelish sabablarini izlash orqali quriladi. Doira stoli ishi vaqtida ta'lim muassasasiga tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda yordam berish va qo'llab-quvvatlash uchun xatti-harakatlarning birgalikdagi rejasi ishlab chiqiladi. Doira stoli o'rta maxsus ta'lim muassasasi va jamoat tashkilotlari hamkorligi tajribasini taqdim etadi. Ta'lim jarayonining har bir qatnashchilari uchun “psixolog – pedagog – jamoat tashkilotlari” harakatlanuvchi

tizimi orqali eng optimal muhitni yaratib, tarbiyasi qiyin o'smirlarga diqqat-e'tibor qaratgan holda barcha qatnashchilar e'tiborini ular tomonidan taklif etilayotgan qadamlarga ijtimoiy mas'uliyatni qabul qilishga yo'naltirish kerak.

Modul ishi mantiqiga mos ravishda Doira stoli majlislaridan biri quyidagicha bo'lishi kerak:

1-bosqich. Doira stoli mavzusi: "Tarbiyasi qiyin o'smirlar tomonidan darsga qatnashish, o'tiladigan predmetlarga, o'qishni qiziqishlarini orttirish". Turli nuqtai nazarlardan muammoga qarash. Mazkur mavzuga oid so'rovnomalar o'tkazgan, intervyu olib borgan turli tuman ma'lumotlarni to'plagan o'qituvchilar va boshqa qatnashchilarning chiqishlari.

2-bosqich. Individual ish – "Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'qishga qiziqishini oshirish uchun qanday yondashuvlarni taklif etgan bo'lardingiz?"

3-bosqich. Individual ish muhokamasi: "Kichik guruhlarga birlashing va o'z ro'yxatingiz asosida bitta umumiy ro'yxat tuzing. Ularni o'zingizning aklif va mulohazalaringiz bilan to'ldiring".

4-bosqich. Doira stolining har bir qatnashchisi ishtirokiga bog'liq bo'lgan birgalikda qaror qabul qilish. Fikrlar, o'xshash muammo bo'yicha o'z ish tajribasi bilan o'rtoqlashish, muammoga o'z nuqtai nazarini bayon qilish. Qo'yilgan vazifani hal qilishga olib keluvchi yo'llarni izlab topish.

5-bosqich. Doira stoli ishi natijasi. Doira stoli ishining natijasi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan predmetlar bo'yicha o'qishga qiziqishni orttirish borasidagi birgalikdagi tadbirlar rejasi asosida yaratiladi. Qatnashchilar o'smirlar uchun foydali ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qo'llanmalar chiqarishga kelishib oladilar. Unga mutaxassislarning telefon raqamlari va o'quv muassasasi o'smirlari uchun qabul soatlarining vaqti kiritildi, shuningdek, mazkur mutaxassislarga murojaat qilish mumkin bo'lgan taxminiy savollar ham keltiriladi.

Doira stolining umumiy ish jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlarning shaxslilik rivojlanishiga yagona ijobiy ustanovka shakllandi uni amalga oshirish esa turli yo'nalishdagi mutaxassislarning harakatlari to'plami sharoitida yuz berdi. Bularning hammasi pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni

korreksiya qilish bo'yicha kasbiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Jamoatchilik" modulini qo'llash natijasi o'qituvchining deviant o'smirlar bilan ishiga berilgan urg'uni o'zgartirish, o'zaro ta'sirnin har bir qatnashchisida shaxsiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni dolzarblashtirish bo'ldi. Demak, biz tavsiya etgan mazkur dasturning qo'llanilishi tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda pedagoglar uchun muhim yo'llanma sifatida xizmat qiladi.

22. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashda pedagog faoliyatining psixologik samaradorligi

O'tkazilgan tadqiqot va majmuaviy modelni amalga oshirish shuni ko'rsatdiki, pedagogik jamoaga yordam ko'rsatishda psixologning o'qituvchidagi tarbiyasi qiyin o'smirlarning "Men timsoli"ni korreksiya qilish borasidagi psixologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'smirlar va hamkasblari bilan ishlashda va muomalada ularga ijodiy yondashuvni amalga oshirishda xalaqit berayotgan o'smirlar tomonidan deviant xulq-atvor shakllarining namoyon bo'lishiga tolerantlik reaksiyalarini namoyish qilish ko'nikmalarini oldilar. Pedagoglar o'z hissiyotlarini tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirdilar, ularni aloqani buzmasdan bevosita namoyon qilishga o'rgandilar. Guruh va psixolog qo'llab-quvatlashi ostida o'qituvchilar o'zlarini tabiiy va bermalol tutishni, o'zlarini namoyon qilishda ekspressivroq va ijodiyroq bo'lish ko'nikmalarini oldilar. Shuningdek pedagoglarda o'zgarayotgan vaziyatga tez va adekvat munosabatda bo'lish qobiliyatida namoyon bo'ladigan ulardagi xulq-atvor egiluvchanligi sezilarli ravishda ortdi. Pedagoglarning o'smirlar bilan aloqalari chuqurroq va emosional jihatdan to'laroq bo'lib qoldi, bu esa o'z navbatida sezilarli samaralar beradi. Yuz bergan o'zgarishlarni tasdiqlash uchun psixodiagnostik tadqiqotning to'rtinchi bosqichi o'tkazildi, u o'z ichiga quyidagilarni oldi:

- o'quvchilar va o'qituvchilarda anketa o'tkazish;
- O'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi leksikasi semantik maydonini tahlil qilish;

- Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi (K.Rodjers va M.Daymond).

Pedagoglarda anketa o'tkazishda “ Sizning o'quv yurtiingizda yagona vazifalar, huquqlar va majburiyatlar bilan ishlovchi yagona pedagogik jamoa shakllangan deb ayta olasizmi?” degan savolga 87% o'qituvchilar “Ha, aytish mumkin deb o'ylayman” deb javob berdilar. 73% o'qituvchilar esa o'quvchilar bilan shakllangan munosabatlardan qoniqqanligi ma'lum bo'ldi. Ularning hayotiy rejaları mazkur o'quv yurtida amalga oshirilishidan qoniqqanlar:

- to'la qoniqqan – 17%;
- asosan qoniqqan – 53%;
- aniq aytish qiyin – 20%;
- kam qoniqqan – 10%.

Mazkur modelning o'qituvchini kasbiy kompetentlik mazmuni va tuzilmasiga ta'siri natijalarini taxlil qilish usullaridan biri o'qituvchini darsdagi leksikasi semantik maydonining tadqiq etishdan, shuningdek qatnashchilarning ish tugagandan so'nggi o'z o'ziga hisobotlari va taqrizlaridan iborat.

Ishda ishtirok etgan pedagoglar fikrlaridan bir nechta namunalar keltiramiz:

- “Bu dastur menga kasbiy faoliyatimda yordam berdi. Men o'z o'quvchilarimni yaxshiroq tushuna boshladim. Menda ular bilan yanada iliqroq munosabatlar o'rnatildi. Mening ko'zim ochildi. Nazarimda yaxshiroq dars o'tayotganga o'xshayman”.

- “Men juda ko’p qo’rqqandim: boshqa odamlarning bahosidan, tanqididan. Men o’z qo’rquvlarim va o’zimga ishonmasligim sabablarini tushunib yetdim. Men o’z ishimni sevishimni tushundim. Doira stoli menga maktabimiz o’quvchilariga yordam berish xoxishimda yolg’iz emasligimni tushunishimga yordam berdi”.

- “Bizning o’quvchilarimiz bilan ishlashda boshqa mutaxassislarining qatnashishi menga mazkur o’quvchilarimizdan ko’pchiligi maktabni bitirib, o’zlariga yaxshi ish topa olishlari uchun umid bag’ishladi”.

Bu jarayonning eng muhim tarkibi bizning fikrimizcha, o’smirlar hayoti va muvaffaqiyatining eng emosional yoqimli vaziyatini yaratishdan iborat. Buning natijasi sifatida o’smirlardagi dezadaptasiya ko’rsatkichlarining pasayishini ham sanab o’tish mumkin.

Shkalalarning o’rtacha qiymati quyidagi ko’rsatkichlarning sezilar-sezilmas pasayishini ko’rsatdi:

- Sb – o’zini qabul qilmaslik;
- Eb – emosional diskomfort;
- Ib - tashqi nazorat.

O’smirlarning katta asosiy guruhida moslashuvchanlik ko’rsatkichi kattaligi (Aa) norma doirasida ekanligi namoyon bo’ldi, uning pasayishi birorta ham o’smirda kuzatilmadi. Bu ko’rsatkichning ozgina ko’tarilishi faqatgina bitta o’smirda kuzatildi. Dezadaptasiya ko’rsatkichining o’rtacha qiymati (Ab) ham me’yor doirasida ekanligi ma’lum bo’ldi, biroq standart og’ishning ahamiyatli

kattaligi guruhlarning bir xil emasligidan dalolat berdi. Haqiqatan ham bir qizda dezadapasiya ko'rsatkichi baland, 15 nafar o'smir va 9 nafar qizlarda esa me'yorga nisbatan ahamiyatsiz past ko'rsatkichga ega bo'ldi (normadagi eng past ko'rsatkich 68 ball bo'lganda uning minimal qiymati 63 ball bo'ldi).

O'zini o'zi qabul qilish (Sa) ning o'rtacha ko'rsatkichi barcha guruhlar uchun umumiy me'yordan tashqariga chiqmadi. O'zini o'zi qabul qilmaslik (Sb) o'rtacha ko'rsatkichi o'g'il bolalarda ham, qizlarda ham me'yordan nisbatan past ekanligi ma'lum bo'ldi. O'zini qabul qilmaslik (Sb) ko'rsatkichining normal qiymati 6 nafar o'g'il bolalarda kuzatildi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha normadan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmadi. Boshqa o'smirlarda bu ko'rsatkich past ekanligi ma'lum bo'ldi. 12 nafar o'smirlarda (3 nafar qizlar va 9 nafar o'g'il bolalar) o'zini qabul qilmaslik (Sb) 5 balldan oshmadi (past ko'rsatkich 22 ball bo'lganda). Emosional komfortning o'rtacha ko'rsatkichi (Yea) normadan tashqariga chiqmadi, bir vaqtda esa emosional diskomfort (Yeb) ko'rsatkichi ham umumiy guruhda ham, o'g'il bolalar guruhlarida ham past ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Emosional komfort (Yea) ko'rsatkichi bo'yicha me'yorga nisbatan alohida yuqori ko'rsatkichlar aniqlanmadi, emosional komfort (Yea) ko'rsatkichining norma bilan taqqoslaganda pasayishi 1 nafar o'g'il bola va 1 nafar qizda kuzatildi. Emosional diskomfort (Yeb) ko'rsatkichining normadan yuqori qiymati 1 nafar o'quvchida qayd etildi, bu ko'rsatkichning pasayishi esa 6 nafar qizlar va 15 nafar

o'g'il bolalarda kuzatildi, binobarin, ba'zi o'smirlarda bu ko'rsatkich 0 gacha pasaydi.

Ichki nazorat (Ia) bo'yicha ko'rsatkich norma doirasidan chiqmadi. Bu shkala bo'yicha bir maromda yuqori qiymatlar 2 nafar o'g'il bola va 2 nafar qizda kuzatildi, normaga nisbatan past ko'rsatkichlar ushbu parametr bo'yicha qayd etilmadi.

Tashqi nazorat ko'rsatkichining o'rtacha qiymati (Ib) umumiy guruhda va o'smir yigitlar guruhida birmuncha pastroq ko'rsatkichlarga ega. Tashqi nazorat (Ib) qiymatining normaga nisbatan pasayishi 9 nafar qizlar va 14 nafar o'g'il bolalarda kuzatildi, holbuki o'g'il bolalarda uning pasayishi keskin namoyon bo'ldi.

O'quvchilarning darsdagi faolligi semantik doirasining tahlili o'quvchilarning o'quv yurtiga, o'qishga salbiy-befarq munosabatdan qiziqish munosabatiga o'zgarganini qayd qilish imkonini beruvchi so'zlarning ustunlik qilishini aniqladi. Taklif etilgan psixologni pedagoglarning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli"ni korreksiyalash doirasidagi psixologik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ish modeli o'qituvchilar bilan ishlashning yangi texnologiyalarini yaratadi, bu esa pedagogning kasbda o'zini o'zi ijodiy amalga oshirishiga imkon yaratadi xamda o'z navbatida tarbiyasi qiyin o'smirlarda mustaqillik, emosional egiluvchanlik, tarix, madaniyat va kelajakdagi kasbida o'zini o'zi aniqlash qobiliyatining rivojlanishini taqozo etadi.

Bizning ishimiz shuni ko'rsatdiki, olingan bilimlar interiorizatsiyasi va ularning kasbiy faoliyatda faol qo'llanilishi zaruriy shart hisoblanadi. Pedagogning psixologik kompetentlikni oshirish bo'yicha mustaqil ishi bizningcha ko'proq samara beradi, chunki o'qituvchi-o'quvchi o'zaro munosabatlari xarakterini o'zgartirishga ham, pedagoglarning kasbiy kompetentligi darajasiga ham ta'sir ko'rsatish kuchi yuqoridir. Demak, yuqoridagi mulohazalarga asoslanib aytish joizki, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashdagi pedagog faoliyatining psixologik samaradorligi muayyan psixologik bilimlarga asoslangan dasturlarning qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi yaqqol namoyon etildi.

XULOSA

Mazkur ish sharoitida pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men» timsolini korreksiya qilish bo'yicha kasbiy faoliyatiga psixologik yondashuv muammosiga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammo doirasida kasbiy faoliyat psixologik tahliliga ilmiyg' nazariy yondashuvlar muammolari o'rganildi:

- *funksional-subyektivlik yondashuvining rivojlanishi va konkretlashishi sifatida;*
- *tizimli;*
- *dinamik;*
- *dual.*

Pedagogning kasbiy faoliyati tahliliga zamonaviy yondashuvlarni o'rganish shunday xulosa chiqarish imkonini berdiki, tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men» timsolini korreksiya qilish uchun eng samarali yondashuv dual yondashuv ekanligi yana bir bor isbotlandi. Mazkur yondashuvning asosiy holatlari va o'z ishlarimiz natijalariga tayanib biz pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men» timsolini» korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati modelini taklif etdik. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- o'qituvchining pedagogik faoliyati kontekstida va tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxslilik xususiyatlarini hisobga olgan holda mazkur kasbiy faoliyatni samarali bajarish manbalari va obyektiv zarur funksiyalar, maqsadlar, vazifalar tahlili;

- tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men» timsoli korreksiyasi bo'yicha prognostik model ishlab chiqish va uni aprobeziyadan o'tkazish;

- tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men» timsoli korreksiyasini amalga oshirish samarali algoritmi, texnologiyasi va muolajasini qo'llash bo'yicha asoslangan takliflarni tayyorlash ham uning samaradorligi darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

Biroq taqdim etilgan funksiyalardan tashqari u shuningdek moslashish va kompensatorlik funksiyasini ham bajaradi, ya'ni maktab o'quvchilarini ta'lim vositalari asosida reabilitasiya qilish bilan shug'ullanadi. Bu bilan mazkur funksiyalarni amalga oshiruvchi maktab o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan alohida talablar belgilanadi. Ayni paytda o'qituvchining kasbiy kompetentligi psixologik parametrlariga ishda quyidagilar kiritildi:

- pedagogning kasbiy motivasiyasi;
- pedagogning individualg'psixologik xususiyatlari (empatiyaga moyilligi, emosional ziyrakligi, tolerantligi, ta'limda individual yondashuvga tayyorgarligi);

- tarbiyasi qiyin o'smirning shaxslilik xususiyatlarini bilish va uni ta'lim jarayonini tashkil etishda hisobga olish;

- tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik o'sishiga pozitiv ustanovka.

Tarbiyasi qiyin o'smirlaragi «Men» timsoli korreksiyasi bo'yicha pedagog kasbiy kompetensiyasi mezonlarini empirik tadqiq etish natijasida tadqiqotimizda

qo'yilgan ilmiy faraz o'z tasdig'ini topdi. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi o'qituvchilar o'rtasida ikki qutbli guruhlar ajratildi:

- kasbiy kompetentlikning yuqori darajadagi psixologik jabxalari mavjud bo'lgan o'qituvchilar guruhi;

-kasbiy kompetentlikning quyi darajadagi psixologik jabhalari mavjud bo'lgan o'qituvchilar guruhi;

Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi pedagoglar kasbiy kompetentligi psixologik jabhalarining mazmuniy xususiyatlariga biz quyidagilarni kiritdik:

Asosiy tafovutlar o'qituvchilarning tanqidga munosabati va psixologik himoya usullarida namoyon bo'ladi. Professional kompetentlikning quyi darajadagi psixologik jabhasiga ega bo'lgan o'qituvchilarda rahbariyat va hamkasblari tomonidan ko'rsatilgan tanqidiy fikrlardan qochishga intilish, shuningdek, bo'lishi mumkin bo'lgan jazolanishlar va noxushliklardan qochish kasbiy kompetentlikning yuqori darajadagi psixologik jabhalari ega bo'lgan o'qituvchilarga nisbatan ular faoliyatining motivasion ta'minlanganligida ko'proq o'rin egallar ekan.

Ichki motivasiya tomonlaridan biri bo'yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlandi. Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men timsoli»ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyatda o'zini o'zi to'la amalga oshirishga bo'lgan yuqori ehtiyoj kasbiy kompetentlikning quyi darajadagi psixologik jabhasiga ega bo'lgan o'qituvchilarga nisbatan kasbiy kompetentlikning yuqori darajadagi psixologik jabhasiga ega bo'lgan o'qituvchilarda kuzatiladi. Kasbiy vazifalarni hal etishda shaxsni kiritish psixologik mexanizmlarini diagnostika qilishda bizning e'tiborimiz pedagoglar manfaatlarining kasbiy faoliyat talablari va sharoitlari bilan mos kelishini aniqlashga yo'naltirildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, biz o'rgangan barcha o'mumta'lim maktablarining o'qituvchilari tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashga tayyorlar (pedagoglarning faoliyatga ijtimoiy kirishuvi ko'rsatkichi nisbatan yuqori, ya'ni pedagoglar manfaatlari ko'p darajada kasbiy faoliyat tomonidan ularga qo'yiladigan talablar va shartlarga mos keladi). Bu birinchi navbatda shu bilan bog'liqqi, pedagoglarning ko'pchiligi – yetarli darajada

kasbiy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislardir. Shakllangan turmush tarzi, jamoaga, ish joyiga bog'langanlik, - bu omillar ham pedagoglarning ishdagi motivasiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs manfaatlarining kasbiy faoliyat talablari va shartlariga mos kelishini aks ettiruvchi o'zini o'zi amalga oshirish ko'rsatkichi kasbiy kompetentlikning yuqori darajadagi psixologik jabhasiga ega bo'lgan pedagoglar va kasbiy kompetentlikning psixologik jabhasi quyi darajada bo'lgan pedagoglarda ahamiyatli farqlanishini ko'rsatdi. Empirik tadqiqotlarni yakunlab, empirik faktlar, qonuniyatlar va natijalarga tayangan holda shuni qayd etish mumkinki, pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men timsoli»ni korreksiya qilish borasidagi faoliyati samaradorligi o'qituvchining psixologik kompetentligi va dezadaptasiya-lashgan o'smirlarning pedagog tomonidan adekvat idrok qilinishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Bizning empirik tadqiqotlarimiz natijasida ajratilgan kasbiy kompetentlikning yuqori va quyi darajasidagi psixologik jabhasiga ega bo'lgan pedagoglarning qutbli guruhlari o'quvchilarning mazkur toifasi bilan ishlovchi o'qituvchining psixologik kompetentligini rivolantirishga yo'naltirilgan konstruktiv metodik apparatni yaratish zaruratini belgilab berdi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o'qituvchining tarbiyasi qiyin o'smirlar korreksiyasi borasidagi ishiga psixologik hamrohlik qilish konsepsiyasi va uning asosida yaratilgan pedagogda psixologik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha psixolog ishi modelini yaratish o'qituvchilar tomonidan tarbiyasi qiyin o'smirlar va ularning ota-nalarini qo'llab-quvvatlash psixologik vositalari va usullarini qo'llash texnologiyasini ishlab chiqish imkoinini berdi. Taqdim etilgan modelning innovasion moduli «Jamoatchilik» deb shartli nomlangan bo'lib, o'qituvchining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishiga psixologik hamrohlik qilish yangi vazifalarini prinsipial yangi vazifalarini hal etadi. U psixolog va o'qituvchining o'zaro ta'sir doirasini unga davlat va jamoat tashkilotlari va xizmatlarini kiritish orqali kengaytirishga yo'naltirilgan Bu modulning alohida uhim tarkiblari shaxsiy tashabbusning ijtimoiy mas'uliyat bilan birikmasi bo'lib, o'zaro ta'sirning barcha qatnashchilarini o'smirlarning ma'naviy ongini qayta qurish maqsadida birlashtiradi. O'tkazilgan tadqiqot va kompleks dasturni amalga oshirish ta'lim

jarayonining barcha qatnashchilariga psixologik hamrohlik qilish ahamiyatini ko'rsatdi.

Ishda tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men timsoli»ni korreksiyalash bo'yicha pedagog kasbiy faoliyatini psixologik tahlil qilish natijasida pedagogning kasbiy kompetentligi psixologik jabhalari ko'rib chiqildi. Empirik tadqiqot natijalariga yakun yasaldi, ular qo'yilgan ilmiy farazni tasdiqladi va ifodalangan vazifalarni pozitiv hal qilish va quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Umumta'lim maktablari pedagoglarining tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishiga psixologik hamrohlik qilish konsepsiyasi mutaxassislar va jamoatchilik xatti-harakatlarini tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning hayot faoliyatlari optimal sharoitlarini mazmuniy va tashkiliyg'metodik jihatdan ta'minlashga kompleks ilmiy asoslangan yondashuvni amalga oshirish uchun koordinasiyalashgan holda birlashtirishdan iborat.

2. Tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlovchi pedagoglar uchun kasbiy kompetentlikning psixologik jabhalaridagi quyidagi shaxsiy mezonlar alohida ahamiyatli ekanligi namoyon bo'ldi:

- pedagogning kasbiy motivasiyasi;
- pedagogning individual-psixologik xususiyatlari (o'smirlardagi deviasiyalarga tolerantlik, empatiya, emosional ziyraklik, ta'limda individual-psixologik yondashuvga tayyorlik);

- tarbiyasi qiyin o'smirning individual psixologik xususiyatlarini bilish va ta'lim jarayonini tashkil etishda uni hisobga olish;

- o'rta maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarig'tarbiyasi qiyin o'smirlarning shaxslilik o'sishiga nisbatan pozitiv ustanovka va uni ta'lim jarayonini tashkil etishda hisobga olish.

3. Pedagogning dezadaptasiyalashgan o'smirni idrok etish adekvatligi va uning kasbiy kompetentligi psixologik jabhalari yuqori darajasi o'rtasida korrelyasion o'zaro aloqadorlik mavjudligi aniqlandi.

4. Pedagogning tarbiyasi qiyin o'smirlardagi «Men timsoli»ni korreksiya qilish borasidagi kasbiy faoliyatiga psixologik hamrohlik qilish mualliflik model

o'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshiradi, bu esa o'z navbatida o'smirlar readaptasiyasi va ijtimoiylashuviga zamin yaratadi.

5. O'qituvchilar va mutaxassislarning bevosita bolalar va o'smirlar bilan bog'liq ko'p rejali o'zaro ta'sirini tashkil etish texnologiyasi tarbiyasi qiyin o'smirlar muammolarini birgalikda hal qilishga asoslanadi. U o'zaro ta'sirning har bir a'zosini shaxsiy tashabbuskorligi va ijtimoiy mas'uliyatini dolzarblashtiradi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi shaxslilik o'sishiga nisbatan yagona pozitiv ustanovka orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent "O'zbekiston".-2008.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2009.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: 2011.
4. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1988.
5. I.A. Karimov Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq, 1989.
6. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi,1992.
7. Abu Ryxon Beruniy,. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida.-T.: 1992.
8. Barotov Sh.R. Sosialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovы sozdaniya psixologicheskoy slujby v Uzbekistane. Avtoref. Diss. dokt. psixol.nauk. T., 1988.
9. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat asoslari. Monografiya. Toshkent, 1999.
- 10.Bexbudiy. Tanlangan asarlar., -T.: "Ma'naviyat", 1999.
11. Davletshin M.G. Psixologiya texnicheskix sposobnostey. - Tashkent, 1975.
12. Jumayev R.Z., Ubaydullayev U.A., Xo'janov B.A. Konfliktologiya asoslari : O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2000.
13. Isokova M.T. Milliy an'analar va ijtimoiy omillar ta'sirida ilk o'spirinlarda ma'naviy tasavvurlarni shakllantirish. Psix. fan. nom. diss. ... avtoref. – T.: 1999.

14. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi: Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – T.: 1994.
15. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1994.
16. Karimova V.M. Sosial psixologiya. Universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Farg'ona, 1993.
17. Mamatov M.M. Etnopsixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.:1999.
18. Mamatov M.M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari – T.: O'zbekiston, 1980.
19. Matematik statistika. 1-qism. Parametrlarni baholash. Tuzuvchilar: Sh. K. Formanov, A.A. Abdushukurov. – T. 1994.
20. To'laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. – Toshkent. Universitet, 2005.
21. To'raqulov E., Raximov S., Abu Rayxon Beruniy: ruhiyat va ta'lim - tarbiya hakida. -Toshkent: O'qituvchi, 1992.
22. Ubaydullayev A.X. Diagnostika aksidentalных sposobnostey v profarentasionnoy rabote sredi molodyoji. Diss. kand. psixol. nauk.- T.: 1999.
23. Xayrullayev M.Farobiy, ruhiy jarayonlar va ta'lim-tarbiya tug'risida.-T.: O'qituvchi, 1966.
24. Xekxauzen X. Motivasiya i deyatelnost// Per.s nem.v 2x t.-M.: 1986.
25. Xoxlova L.P. Talabalar uchun psixologiyadan topshiriklar-T.: O'kituvchi, 1992.-160 b.

26. Shoumarov G'.B., Barotov Sh.R. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat // Xalq ta'limi. Toshkent, 1996.
27. Shoumarov G'.B. Psixologiya fani: yangiliklar, muammolar yechimlar. // Ma'rifat. – Toshkent, 1996.
28. Shoumarov G'.B., Barotov Sh.R. «Psixologik xizmat nizomi»ga qo'shimchalar // Xalq ta'limi. Toshkent, 1997.
29. O'zbekiston respublikasi xalk ta'limi tizimida psixologik xizmat, Xalk ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestasiyasi xakida Nizom. - Toshkent. 1986. G'oziyev E., Xolmuhamedov M., Ibrohimov X. Psixologiya metodologiyasi // Psixolog mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2002.
30. G'oziyev E. Ta'lim muassasalarida psixologiyaning vazifalari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1995.
31. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari, Toshkent. Universitet, 1997.
32. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy- eksperimental taxlil /E. G'oziyev; O'z. R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy Universiteti. – Toshkent. : Nochir, 2010.
33. G'oziyev E. Psixologiya: Yosh davrlar psixologiyasi.: Ped. institutlari va universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi., 1994.
34. Qodirov B.R. Iste'dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. - T., 1992.
35. Qodirov B.R. Uroven aktivizatsii i nekotorıye dinamicheskiye xarakteristiki psixicheskoy aktivnosti // Vopr.psixologii. Moskva. 1976.

Qodirov K.B. Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis. (9-sinf o'quvchilari ma'lumotlari asosida). Psixol. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent.- 2001.- 134 b.

Internet saytlari:

1. www.google.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.native-lib.ru
4. www.psy_test.ru
5. www.doc.uz
6. www.ref.uz